

Tarix fani o'quv dasturlari

6-SINF TARIX (QADIMGI DUNYO) (68 soat)

1-bob. Eng qadimgi tuzum (10 soat)

Kirish.

Qadimgi dunyo tarixi haqida. Darslik bilan ishlash.

Qadimgi tarix taraqqiyotining boshlanishi.

Qadimgi tarixni o'rganish. Qadimgi tarix bo'yicha manbalar. O'zbekiston va jahon sivilizasiyasi. Eng qadimgi tuzumni davrlashtirish. Arxeologiya, antropologiya, etnografiya.

Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari.

Yeng qadimgi odamlar. Eng qadimgi odamlarning mashg'ulotlari. Diniy e'tiqodlarning vujudga kelishi.

Urug'chilik jamiyati.

So'nggi paleolit davri. Mezolit davri. Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi.

Eneolit va bronza davri.

Metall davrining asosiy xususiyatlari. Patriarxatning boshlanishi. Bronza davri manzilgohlari.

Temir davriga o'tishda O'rta Osiyoning rivojlanishi.

Temirdan foydalanish. Ijtimoiy tuzum. Harbiy demokratiyaga o'tish.

2-bob. Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo (15 soat)

Nil vodiysi va uning aholisi. Qadimgi Misr.

Misr-Nil in'omi. Misrliklarning mashg'ulotlari. Hunarmandchilikning rivojlanishi. Misr davlatining vujudga kelishi. "Nom"larning vujudga kelishi. Misr fir'avnlarning harbiy yurishlari boshlanishi. Qadimgi Misrning geografik joylashuvi, hududi, chegaralari, davlatning boshqaruv shakli. Fir'avnlarning bosqinchilik yurishlari va ularning natijalari. Misrliklarning olam to'g'risidagi tasavvurlari. Misrliklarning xudolari.

Misr madaniyati. Diniy e'tiqodlari.

Piramidalar va zamon. Sfinkslar. Tutanxamon. Mo'miyolash. Muqaddas hayvonlar. Yozuv. Ierogliflar. Nazariy bilimlarning vujudga kelishi. Adabiyot ravnaqi.

Mesopotamiya sivilizasiyalari.

Geografik joylashuvi, hududi, chegaralari, Mesopotamiya aholisining mashg'ulotlari. Babil - "Xudolar darvozasi". Hamurappi qonunlari. Babil madaniyati. Din, arxitektura va san'at.

Old Osiyo davlatlari.

Xett davlati. Ossuriya podsholigi. Urartu davlati. Finikiya va Falastin. Hududi, geografik joylashuvi, davlat boshqaruvi.

Ahamoniylar davlati.

Ahamoniylar davlati aholisi. Eron hududidagi qadimgi davlatlar. Fors podsholigining paydo bo'lishi. Kir II, Kambiz va Doro I islohotlari. Qadimgi forslar madaniyatining rivojlanishi.

Hindiston sivilizatsiyasi.

Hududi, geografik joylashuvi, davlat boshqaruvi. Hindistonning eng qadimgi sivilizatsiyalari, diniy e'tiqodi. Kastalar. Chandragurta davlati. Buddaviylik "Xudosiz din". Ilm va madaniyatning rivoji. Moxenjodora va Xarappa yodgorliklari. "Mahobxorota", "Ramayana" va "Panchatantra".

Xitoy sivilizatsiyasi.

Xitoyda sivilizatsiyaning vujudga kelishi. Aholi mashg'ulotlari. "ko'ppodsholiklar davri" davrida Xitoy.

Miloddan avvalgi III - mil. II asrlarda Xitoy.

Markazlashgan davlatning tashkil topishi. Buyuk Xitoy devori. Xitoydagi xalq qo'zg'olonlari. Sin davlati hukmronligiga qarshi boshchiligidagi xalq qo'zg'olonlari. Qadimgi Xitoy madaniyati.

O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar.

O'zbekiston hududida aholining joylashishi. Miloddan avvalgi asrlarda xo'jalikning rivojlanishi.

Ilk davlat birlashmalari – Qadimgi Xorazm va Baqtriya. So'g'd. Qiziltepa. Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Ko'zaliqir.

Zardushtiylik.

Zardushtiylikning vujudga kelishi tarixi. Zardusht. Zardushtiylikning tarqalishi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto". Ahuramazda, Mitra, Anaxita, Ahriman. Zardushtiylik marosimlari.

3-bob. Qadimgi Yunoniston (10 soat)

Antik tarixning boshlanishi.

Qadimgi Yunonistonning geografik joylashuvi, chegaralari, aholining mashg'ulotlari. Minoy sivilizatsiyasining vujudga kelishi. Yunonlarning dengiz sayohatlari.

Qadimgi Yunonistonning yuksalishi.

Yunon polislari. Shahar davlatlar. Afina davlati. Sparta davlati. Yunon koloniyalarining tashkil topishi. Olviya, Xersones, Pantikapey koloniyalari.

Afina demokratiyasi.

Afinada demokratiyaning shakllanishi. Drakont qonunlari. Solon islohotlari. Afinada demokratiya ravnaqi. "Pyerekl asri".

Yunon-fors urushlari.

Ellada va Eron. Marafon jangi. Fermapol jangi. Salamin jangi.

Yunonistonning Makedoniya tomonidan bosib olinishi.

Yunonistonning qulashi sabablari. Demosfen. Xeroney yaqinidagi jang. Yunoniston Makedoniya tarkibida.

Qadimgi Yunoniston madaniyati.

Fuqarolar tarbiyasi. Olimpiya o'yinlari. Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari. Yunonistonda teatr. Arxitektura va haykaltaroshlik. Fidiy va Dedal. Parfenon ibodatxonasi.

Qadimgi yunon afsonalarining qahramonlari. Qadimgi yunonlarning xudolari.

Qadimgi Yunoniston olimlari va mutafakkirlari.

Qadimgi Yunonistonda ilm-fan. Afinalik donishmandlar: Geraklit, Demokrit, Diogen, Gerodot, Aristotel, Arximed, Platon, Sokrat.

4-bob. O'rta Osiyo (Turon) (15 soat)

O'rta Osiyoda Ahamoniylar hukmronligi.

Kir II va uning bosqinchilik yurishlari. Doro I ning saklar ustiga yurishlari. To'maris va Shiroq jasorati.

Ahamoniylar hukmronligi davrida davlatning boshqarilishi. Satraplik. Miloddan avvalgi VII-V asrlarda madaniyat taraqqiyoti. Madaniyat.

O'rta Osiyo xalqlarining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi.

Turon xalqlarining qurollari va harbiy san'ati. Spitamenning Makedoniyalik Aleksandr bosqinchiligiga qarshi kurashi. Aleksandrning O'rta Osiyoga bostirib kirishining oqibatlari.

Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi.

Baqtriya va So'g'diyona Salavkiylar davlati tarkibida. Yunon Baqtriya davlati. Iqtisodiyot, madaniyat va xalqaro savdo aloqalarining rivoj topishi.

Qadimgi Xorazm.

Xorazm madaniyati. Ko'zaliqir, Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a. O'zbek davlatchiligi tarixidagi o'rni.

Qadimgi Davan.

Qadimgi Davan davlatining tashkil topishi, hududi va aholisi. Davan davlatining tashqi aloqalari. O'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni.

Qadimgi Qang'.

Qadimgi Qang' davlatining tashkil topishi, hududi va aholisi. Madaniy aloqalari. O'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni.

Qadimgi Kushon podsholigi.

Kushon podsholigining tashkil topishi. Geografik joylashuvi. Kudzula Kadfiz, Vima, Kanishka. Iqtisodiyotning rivojlanishi. Yozuv. Diniy e'tiqodlar. Arxitektura va san'at.

Buyuk ipak yo'li.

Buyuk ipak yo'lining vujudga kelishi, uning shaxobchalari va yo'nalishlari. Buyuk ipak yo'lining ahamiyati.

O'rta Osiyo ilk yozma manbalarda

Xitoy va Yunon tarixchilari O'rta Osiyo xalqlari to'g'risida. Qoyatoshlardagi bitiklar.

5-bob. Qadimgi rim (6 soat)

Italiya va uning aholisi.

Italiyaning hududi va tabiiy sharoiti. Rimga asos solinishi. Qadimgi Rimda davlat boshqaruvi.

Rim Respublikasi.

Respublikani boshqarish. Senat. Respublika. Diktator. "12 jadval qonunlari". Rim shaharlarida hayot. Qadimgi rimliklarning xudolari. Diniy marosimlar va qohinlar.

O'rta yer dengizida hukmronlik uchun kurash.

Rim armiyasi. Puni urushlari. Karfagenning vayron etilishi. Rim provinsiyalari. Rimda qullarning ahvoli. Gladiatorlar jangi. Spartak boshchiligidagi qo'zg'olon. Respublika qulashining sabablari. Syezar diktaturasi. Hokimiyat uchun kurash va uning oqibatlari.

Rim imperiyasining qulashi va zavoлга yuz tutishi.

Rim imperiyasining G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linishi. Imperiyaning qulashi. Varvarlar. Gotlarning Rimni ishg'ol etishi. G'arbiy Rim imperiyasining qulashi.

Qadimgi Rim madaniyati.

Rim quldorlari va kambag'allarning turmushi. Ta'lim. Arxitektura, haykaltaroshlik. Iso Masih, Xristianlikning muqaddas kitobi. Xristianlikning yoyilishi.

7-SINF O'ZBEKISTON TARIXI

Kirish. “Diyorimiz jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri”.

Darslikning asosiy maqsad va vazifalari. Mamlakatimiz hududida yashagan aholining hayotidagi tub o'zgarishlar haqida. O'rganiladigan davrning o'ziga xos xususiyatlari.

1-bob. O'rta asrlarda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar.

Qadimgi Turon. Yirik sug'orish tarmoqlarining qazib chiqarilishi. Yerga egalik qilishning yangi shaklining qaror topishi va uning rivojlanishi. Qishloq jamoasining dehqon va unga qaram kadivar tabaqalarga ajralishi.

Ilk o'rta asrlarda. Xorazm. Xioniylar. Kidariy davlatlari.

Xorazm davlati. Ko'chmanchi chorvador, xioniy va kidariylarining kirib kelishi. Davlat hududi, geografik joylashuvi va davlat boshqaruvi. Aholining mashg'ulotlari.

Eftallar davlati. Eftallar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Eftallar davlatining tashkil topishi, hududi, geografik joylashuvi, davlat boshqaruvi, inqirozinining sabablari.

Aholining mashg'ulotlari. Aholining ho'jalik hayoti. Yer egaligi. Savdo va pul muomalasi, til va madaniy aloqalar.

O'rta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi davrida.

Turk xoqonligining tashkil topishi, kengayishi, hududi. Turk xoqonligining boshqaruvi. Xoqonlikning bo'linishi. Xoqonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

G'arbiy Turk xoqonligi.

G'arbiy Turk xoqonligining hududi, davlat boshqaruvi, tudunlar, yabg'ular, teginlar faoliyati. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi.

So'g'd ixshidlari, Tohariston yabg'ulari, Choch tudunlari, Iloq dehqonlari, Farg'ona ixshidlari boshqargan davlatlar. Boshqaruv ma'muriyati, shaharlar me'morchiligi.

VI-VII asrlarda madaniy hayot.

Yozuv. Diniy e'tiqod. Shaharlar. Musiqa va san'at.

2-bob. Arab xalifaligi davrida Movarounnahr

Movarounnahrda arab xalifaligining o'rnatilishi.

Movarounnahr hududi, geografik joylashuvi. G'arbiy Turk xoqonligining tugatilishi. Movarounnahr hududini arablar tomonidan zabt etilishi.

Arablar davrida o'lkamizda mavjud bo'lgan yerga egalik shakllari.

Movarounnahrda Islom dinining yoyilishi.

Islom dinini qabul qilgan aholiga imtiyozlarning berilishi. Jizya, zakot, xiroj, ushr soliqlarning joriy etilishi.

Xalifalikka qarshi xalq noroziligi.

Xalifa Umar ibn Abdulazizning yerli xalqlar bilan kelishish siyosati. G'urak va Divashtich harakatlari. "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni, uning oqibatlar.

Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahr.

Ummaviylar siyosatiga qarshi noroziliklarning vujudga kelishi. Abu Muslim. Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Aholining mashg'ulotlari. Abbosiylar davrida Movarounnahrning boshqaruv usullari. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

3-bob. Movarounnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi

Qorluqlar, O'g'uzlar, Toxiriylar.

Qorluqlar, O'g'uzlar, Toxiriylar davlatlarining tashkil topishi.

Somoniylar.

Ismoil Somoniy, Movarounnahr va Xurosonning yagona davlatga birlashtirilishi. Davlat boshqaruv tizimi, islom dini rivoji.

Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Somoniylarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli. Xo'jalik hayoti. Ichki va tashqi savdo. Yer egaligining shakllari. Somoniylar davlatining inqirozi.

G'aznaviylar.

G'aznaviylar davlati. Mahmud va Mas'ud G'aznaviylar davri. Davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Diniy munosabatlar.

Qoraxoniylar.

Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrda hujumi. Davlatning ikkiga bo'linishi. Saljuqiylar davlati. Davlat boshqaruvi. Diniy munosabatlar. Qoraxitoylarning Movarounnahrda hujumi.

Xorazm davlati va uning yuksalishi.

Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi. Davlat hududining kengayishi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabat. Yer egaligi. "Iqto" ning kengayishi. Savdo-sotiq, hunarmandchilikning rivojlanishi.

Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari.

Xorazm davlatining ichki va tashqi siyosati. Elchilik va diplomatik munosabatlar. Ichki ziddiyatlarning kuchayishi. O'tror voqeasi.

Muhammad Xorazmshohning mamlakat mudofaasiga oid tadbirlari va uning oqibatlar.

Xorazmshohning qo'shin tuzilishi. Chingizxon bosqiniga qarshi mudofaa rejasi. O'tror qamali va G'oirxonning mudofaa harakatlari.

Jaloliddin Manguberding Xorazm taxtiga o'tirishi.

Jaloliddinning taxt vorisi etib tayinlanishi. Jaloliddin Chingizxon qo'shiniga qarshi tadbirlari va dastlabki g'alabalar. Parvon jangi. Sind daryosi bo'yidagi jang.

Jaloliddin Manguberdi mohir sarkarda.

Mo'g'ul qo'shinlari va Jaloliddin o'rtasidagi janglarning boshlanishi. Pravon jangi va mo'g'ullarning yengilmasligi haqidagi afsonaning barbod bo'lishi. Sind jangi va uning ahamiyati. Xuroson va Yaqin Sharqdagi muvaffaqiyatli yurishlar.

Jaloliddin Manguberdi – Vatan qahramoni.

Mustaqillik yillarida Jaloliddin Manguberdi nomining tiklanishi. Jaloliddin Manguberdi ordeni ta'sis etilishi. Tarixiy-badiiy asarlarda Jaloliddin Manguberdi obrazining yaratilishi.

Chig'atoy ulusining tashkil topishi.

Chingizxonning ulus taqsimoti. Chig'atoy ulusining tashkil topishi. Chingizxon boshqaruv tartiblarining joriy etilishi. Siyosiy jarayonlar. Ulusning ikkiga bo'linib ketishi. Xonlarning islohotlari. Kebekxon, Tarmashirin, Amir Qazag'on. Hududi va aholisi.

Ijtimoiy-iqtisodiy holat.

Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli. Soliq va majburiyatlar. Mo'g'ullarga qarshi xalq harakatlari. Savdo, pul, tovar munosabatlari. Mas'udbekning pul islohotlari. Kebekxon va uning islohotlari. Iqtisodiy hayotning jonlanishi.

Etnik jarayonlar va o'zbek xalqining shakllanishi.

Mintaqada xalqlarning shakllanishi. O'zbek xalqining shakllanishi. Urug'larning ko'chib joylashuvi.

4-bob. Ajdodlarimizning ilmiy merosi abadiyatga daxldor ma'naviy xazina

Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayoti

O'lkamizda aniq va tabiiy fanlarning rivoji. Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning ilmiy merosi zamonaviy ilm-fan rivojida tutgan o'rni. "Bayt ul hikma".

Adabiyot.

Turkiy tildagi adabiy meros. Mahmud Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy ijodi.

Diniy bilimlarning rivojlanishi.

Imom Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Abduxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy. Najmiddin Kubro faoliyati.

Me'morchilik, san'at va musiqa.

Xalq amaliy san'ati. Musiqa asboblari. Shashmaqomga asos bo'lgan maqomlarning shakllanishi. Me'morchilik san'ati, Xattotlik, naqqoshlik, o'ymakorlik.

5-bob. Amir Temur va Temuriylar davri tarixi

XIV asrning o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

Siyosiy vaziyatning yomonlashuvi. Mamlakat aholisining turmush tarzi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi. Movarounnahrning bo'linib ketishi.

Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi.

Amir Temur va Husayn o'rtasidagi kurashlar. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi. Soxta xonlarni tayinlash. Amir Temurning mamlakatni birlashtirish yo'lidagi harakatlari. Mustahkam qo'shining tashkil topishi.

Amir Temur davlatining boshqaruvi va harbiy tizim.

Davlat boshqaruvi, Davlat chegaralari. Amir Temur saltanatining ma'muriy va harbiy tuzilishi. Suyurg'ol yerlar. Amir Temur "Temur tuzuklari".

Amir Temurning tashqi siyosati.

Sharq va G'arb mamlakatlari bilan munosabatlar. Elchilik va diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi. Buyuk ipak yo'lida savdo munosabatlarining rivojlanishi.

Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni.

Amir Temurning Vatanimiz va jahon tarixida tutgan o'rni. Amir Temur jahon va milliy tarixchilarning e'tirofida. Mustaqillik yillarida Amir Temur xotirasining tiklanishi.

Temuriylar davridagi siyosiy jarayonlar.

Taxt uchun kurashlar. Xalil Sulton. Shohrux hokimiyatining qaror topishi.

Mirzo Ulug'bekning hukmronligi davrida Movarounnahr.

Movarounnahr va Xuroson. Ulug'bekning harbiy yurishlari. Davlat boshqaruvi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Ichki va tashqi siyosat.

Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi.

Siyosiy parokandalik. Temuriy shahzodalar o'rtasida hokimiyat uchun kurash. Davlatnin yemirilishi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va bunyodkorlik.

Shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo. Sug'orish va qishloq ho'jaligi, yer munosabatlari, soliq turlari.

6-bob. XIV-XV asrlarda fan va madaniyatning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati

Ta'lim tizimi.

Majburiy ta'limning joriy etilishi. Boshlang'ich ta'lim, madrasi umumiy, madrasai oliya kabi uzluksiz ta'lim tizimining tashkil etilishi.

Aniq fanlarning rivojlanishi.

Matematika va astronomiya fanlarining rivojida Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muhammad Ali Qushchi, Muhammad Xavofiylarning ilmiy merosi, ularning zamonaviy sivilizatsiya rivojida o'rni.

Adabiyot

Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy hayoti va faoliyati. Jahon jamoatchiligi tomonidan adiblarimiz va tarixchilarimiz ilmiy merosining e'tirof etilishi.

Tasviriy san'at. Tasviriy san'at. Xirotda san'at maktabi. Kamolliddin Behzod ijodi, uning o'ziga xosligi. Miniaturada san'atining yuksalishi.

7-SINF JAHON TARIXI

1-bob. O'rta asrlarning ilk davri (7 soat)

Kirish. German qabilalari va Rim imperiyasi.

O'rta asrlar davri tarixini o'rganish uchun mavjud manbalar. O'rta asrlar davri jahon tarixining bir qismi.

IV–VI asrlarda xalqlarning buyuk ko'chishi. Germanlarning G'arbiy Rim imperiyasi hududida joylashishi. Germanlarning ijtimoiy tuzumi. G'arbiy Yevropa sodir bo'lgan o'zgarishlar.

Franklar davlatining tashkil topishi. Franklar imperiyasi.

Frank qabilalari. Franklar davlatining tashkil topishi. Xlodvig zamonida qirol hokimiyati. Xristian dinining qabul qilinishi.

Karolinglar sulolasi. Frank imperiyasining tashkil topishi. Buyuk Karl davrida davlatning idora qilinishi. Yirik yer egaligining shakllanishi. Qaram dehqonlarning majburiyatlari. Imperiyaning parchalanib ketishi. Verden shartnomasi. Uch qirollikning vujudga kelishi.

Britaniyadan – Angliyaga.

Britaniya qabilalari buyuk xalqlar ko'chishi arafasida. Angl-saks qirolliklarining tashkil topishi. Angliya-Daniya munosabatlari. Shimoliy davlatning tuzilishi. Ijtimoiy hayot. "Donolar kengashi" faoliyati.

Muqaddas Rim imperiyasi.

Karolinglar davrida Germaniya. Saksoniyaliklar sulolasi hukmronligi. Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi. Rim papasi va Otton I munosabatlari. Frankoniya sulolasining hukmronligi va Rim papalari o'rtasidagi ziddiyatlar.

Vizantiya: G'arb va Sharq orasida.

Imperiyaning tashkil topishi. Ilk o'rta asrlarda Vizantiya shaharlari. Hunarmandchilikning rivojlanishi va savdo-sotiqning o'sishi. Yustinian hokimiyati va uning siyosati. Vizantiyaning zaiflashuvi.

Slavyanlar va ularda davlatlarning tashkil topishi.

Slavyanlarning joylashishi, ijtimoiy tuzumi. Bolgariya podsholigi. Chexiya davlati, Polsha davlatining tashkil topishi. Sharqiy slavyanlarning joylashuvi, ijtimoiy tuzumi. Kiyev Rusi davlatining tashkil topishi va feodal munosabatlar. Vladimir Monomax knyazligi.

Yevropa xalqlarining madaniyati.

Vizantiya madaniyati. Yevropada cherkov va madaniyat. Maorif. Me'morchilik va san'at. Qo'lyozma kitob san'ati. Kirill va Mefodiy yozuvlari.

2-bob. Ilk o'rta asrlarda Osiyo (3 soat)

Arabiston ilk o'rta asrlar boshida.

Arab qabilalari va ularning ijtimoiy turmushi. VII asr boshlarida Arabistondagi iqtisodiy, siyosiy vaziyat. Islom dinining vujudga kelishi. Islom dini, uning mohiyati.

Arab xalifaligi.

Arab xalifaligining tashkil topishi va yuksalishi. Sulolalar. Ummaviylar va Abbosiylar hukmronligi davrida xalifalik. Xalifalikning zaiflashuvi va parchalanishi.

Osiyo mamlakatlari madaniyati.

Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati. Xalifalik mamlakatlarida me'morchilik va san'at. Ilm-fan taraqqiyoti. "Bayt ul-hikma".

Hindiston va Xitoy xalqlari madaniyati.

3-bob. Jahon xalqlari O'rta asrlarning rivojlangan davrida (XI-XV asrlar) (4 soat)

Yevropada o'rta asr shaharlari.

Xo'jalikdagi o'zgarishlar. Hunarmandchilikning ajralib chiqishi. Shaharlarning vujudga kelishi. Sexlarning paydo bo'lishi. Tovar xo'jaligining vujudga kelishi. Shaharlarni o'z-o'zini boshqaruvi. Shaharliklarning turmushi. Hunarmandchilik. Savdo-sotiqning rivojlanishi. Yevropa shimolidagi savdo-sotiq ishlari. Yarmarkalar, banklar va birjalarning vujudga kelishi.

Osiyo mamlakatlarning o'rta asr shaharlari.

Osiyoda shaharlar, ularning aholisi, turmush tarzi. Hunarmandchilik va savdo. Bozorlar. Sarroflar. Yevropa mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalari.

O'rta asrlarda xristianlik.

Xristian dinining ikkiga bo'linishi va uning oqibatlari. Katolik cherkovi davlati. Provaslav cherkovi. Katolik cherkovining jamiyatdagi o'rni. Yeretiklar va ularga qarshi kurash.

Salib yurishlari.

Salib yurishlari arafasida Yevropadagi siyosiy vaziyat. Salib yurishlarining sabablari. Salibchilar qo'shini.

4-bob. Yevropada markazlashgan davlatlarning tashkil topishi (7 soat)

Fransiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi.

Iqtisodiy-siyosiy ahvol. Mamlakatni birlashish zarurati. Fransiyada toifaviy monarxiyaning qaror topishi. Aholining toifalarga bo'linishi.

Fransiya qirolining cherkovga qarshi siyosati. General shtatlarning chaqirilishi. General shtatlardagi ixtilof.

Fransiyada mutlaq monarxiya.

Fransiyada mutlaq monarxiyaning qaror topishi. Sulh shartnomasi. Fransiyaning siyosiy birlashuvi yakunlari. Fransiyada mutlaq monarxiyaning tashkil topishi. Lyudovik XI ning idora usuli.

Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi.

Normandlar istilosi va uning oqibatlari. Kuchli qirollik hokimiyatining vujudga kelishi. "Buyuk erkinlik xartiyasi". Angliya parlamenti.

Angliyaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti. Ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi. Angliyada sulolaviy kurashlar, tyudorlarning hokimiyaga kelishi.

Germaniya.

Mamlakat xo'jaligi. Siyosiy taraqqiyotning o'ziga xosligi. Shtaufenlar sulolasi hukmronligi. XIII-XV asrlarda Germaniyadagi siyosiy ahvol. Iqtisodiy va ijtimoiy hayot. Siyosiy taraqqiyot. German shaharlari.

Rus knyazliklari.

Kiyev Rusining bo'linib ketishi. Rusning siyosiy tarqoqlik sabablari va uning oqibatlari. Ichki ziddiyatlar va ularning oqibatlari. Mo'g'ullar hujumi. Botuxonning Rus yerlariga bosqini. Shved va nemis ritsarlarining rus yerlariga tahdidlari.

Rusni yagona davlatga birlashtirish shart-sharoitlari. Kulikovo jangi. Rusning ozod bo'lishida Amir Temurning o'rni.

Yevropa madaniyat: me'morchilik, san'at va adabiyot

Dunyo haqidagi tasavvurlarning kengayishi. Ma'orifning rivojlanishi. Universitetlarning tashkil topishi. Ilm-fanning rivojlanishi. Kitob bosishning ixtiro qilinishi. Me'morchilik, G'arbiy Yevropada san'at va adabiyot. Gumanizm.

5-bob. Osiyo va Amerika xalqlari (9 soat)

Saljuqiylar davlati.

Saljuqiy turklar davlatining vujudga kelishi, ravnaqi. Iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar. Davlat boshqaruvining o'ziga hosligi.

Usmonli turklar davlati.

Usmoniy turklar davlati va uning yuksalishi. Yevropaga tahdidi. Amir Temur va Boyazid munosabatlari. Vizantiya imperiyasining barham topishi.

Mo'g'ullar davlati.

"Yakka mo'g'ul ulusi" ning tashkil topishi. Iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar. Davlat boshqaruvining o'ziga hosligi. Mo'g'ullar davlati va uning yuksalishi.

Oltin O'rda xonligi.

Xonlikning tashkil topishi. Oltin O'rdada ijtimoiy munosabatlar. Botuxon va Berkaxon hukmdorligi davrida Oltin O'rda. Oltin O'rdaning qulashi.

Xitoy. Yaponiya.

XIII-XV asrlarda Xitoydagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Mo'g'ullar bosqini va uning oqibatlari. Min sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. Min sulolasining ichki va tashqi siyosati.

Yaponiyada yer egaligi jamiyatining qaror topishi. Xo'jalikning rivojlanishi. Davlat boshqaruvining o'ziga hosligi. Imperator va syogun hokimiyati. Xodzyo xonadoni hukmronligi. Mamlakatdagi ichki ziddiyatlar.

O'rta asrlarda Koreya.

Uch qirollik davri. Silla, Koryo, Choson qirolligi. Buyuk Sechjon. Boshqaruv shakli, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot.

Hindiston.

XI-XV asrlarda Hindistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Dehli sultonligining tashkil topishi. Davlat boshqaruvining o'ziga hosligi. Dehli sultonligining keyingi taqdiri. Yevropaliklarning kirib kela boshlashi.

Amerika o'rta asrlarda.

Amerikaning tub aholisi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Mayyalar. Asteklar. Inkalar sivilizasiyalari.

8-SINF O'ZBEKISTON TARIX

Kirish.

8-sinf O'zbekiston tarixi qaysi davrlarni o'rgatadi? Darslik bilan ishlash.

1-bob. XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat

Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat. Dashti Qipchoqda Abulxayrxon davlatining tashkil topishi. Abulxayrxon vafotidan keyin Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat va Muhammad Shayboniyning siyosiy maydonga chiqishi. Dashti Qipchoqda Shayboniyxon hukmronligining o'rnatilishi.

Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat. Temuriylar sulolasi vakillarining o'zaro kurashlari. Movarounnahrda Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung'ur va Sulton Ali Mirzolar hukmroligi. Xurosonda Husayn Bayqaro hukmronligining mustahkamlanishi. Husayn Bayqaroning vafot etishi va Xurosonda qo'shhokimiyatchilikning vujudga kelishi.

Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxon munosabatlari. Boburning siyosiy faoliyati. Shayboniyxonning Movarounnahr uchun kurashlarga qo'shilishi. Samarqand uchun kurash. Boburning Movarounnahrni tark etishi. Bobur va Shayboniyxonlarning o'zbek davlatchiligidagi o'rni.

Movarounnahr va Xurosonda shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi. Shayboniyxonning Movarounnahrni egallashi. Xorazm va Xuroson uchun kurash. Ismoil Safaviy va Shayboniyxon o'rtasidagi kurash. Bobur va shayboniylar o'rtasidagi kurash.

2-bob. Buxoro xonligi va Buxoro amirligi

Buxoro xonligining tashkil topishi. Ubaydullaxon va Shayboniylar davlatining tiklanishi. XVI asrning 40-50-yillarida Shayboniylar o'rtasidagi o'zaro kurashlar. Toshkent, Samarqand, Balx va Buxoro xonliklari o'rtasidagi kurashlar. Navro'z Ahmadxon.

Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining yuksalishi. Abdullaxon II ning hokimiyat tepasiga kelishi. Movarounnahrning birlashtirilishi. Buxoro shahrining poytaxt sifatida yuksalishi. Abdullaxon II davrida ichki va tashqi siyosat. Shayboniylar sulolasining inqirozi.

Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. Ashtarxoniylar sulolasi va ularning Buxoroga kelishi sabablari. Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Imomqulixon davrida hokimiyatning mustahkamlanishi. Abdulazizxon va Subhonqulixon davrida

ichki nizolar va Xiva xonligining Buxoroga hujumlari. Subhonqulixon davrida Xivaning bo'ysundirilishi.

Buxoro xonligida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi. Ubaydullaxon II ning ichki siyosati. Ubaydullaxon II ning pul islohoti. Islohotga qarshi g'alayonlar. Abulfayzxon davrida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi. Muhammad Hakimbiyning hokimiyatdagi mavqeini kuchayishi. Samarqandda Rajabxon isyoni. Ko'chmanchi qozoqlarni mamlakatni talon-taroj etishi. Muhammad Hakimbiyning hokimiyatga kelishi. Ashtarxoniylar sulolasining inqirozi.

Buxoro xonligida davlat boshqaruvi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Buxoro xonligining hududi, geografik joylashuvi. Shayboniylar davrida markaziy va mahalliy boshqaruv: mansab va unvonlar. Boshqaruvdagi an'analar va o'zgarishlar. Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvidagi ayrim o'zgarishlar.

Yer egaligi munosabatlari. Shayboniylar o'tkazgan islohotlar. Iqtisodiy hayot. Soliq va majburiyatlar.

Buxoro xonligining tashqi siyosati. Antoniy Jenkinsonning O'rta Osiyoga kelishi. Buxoro xonligining tashqi siyosati: Buxoro xonligi – Usmonli davlati munosabatlari. Buxoro va eron munosabatlari. Buxoro – Rossiya munosabatlari. Buxoro - Hindiston munosabatlari. Elchiliklar. Tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari.

Buxoro xonligida madaniy hayot. Ilm-fan, tabiiy va aniq fanlar rivoji. Tarixnavislik, adabiyot va san'at, me'morchilik. Maktab va madrasada o'qish. Madrasalar ta'minoti. Talaba va mudarrislar faoliyati. Ta'lim shakllari va bosqichlari.

Buxoro amirligining tashkil topishi. Ashtarxoniylar inqirozi. Muhammad Rahimxon Mang'itning hokimiyat tepasiga kelishi. Markaziy davlat hokimiyatining mustahkamlanishi va viloyatlarning bo'ysundirilishi.

Doniyolbiy davrida ichki nizolar. O'zbek urug'lari amirlarining isyoni va qo'zg'olonlarning kuchayishi. Shohmurodning hokimiyat tepasiga kelishi. Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi.

Amirlikda markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi. Amir Haydar davrida siyosiy keskinlik va qo'zg'olonlar. Amir Nasrullo hukmronligi va uning davrida davlat hokimiyatining mustahkamlanishi. Buxoroning hududiy yaxlitligini tiklanishi. Qo'qon xonligining bosib olinishi. Buxoro – Xiva munosabatlari.

Buxoro amirligida davlat boshqaruvi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Buxoro amirligi hududi. Davlat tuzumi va ma'muriy boshqaruv islohotlari. Mamlakatning ma'muriy bo'linishi. Davlat lavozimlari. Lavozim va unvonlar berish tartibi. Boshqaruvning o'ziga xos tamoyillari.

Aholining etnik tarkibi. Qishloq xo'jaligi. Suv inshoatlari va sug'orish tizimi. Buxoro amirligida yer egaligi. Dehqonlar va chorvador aholining ahvoli. Soliq siyosati.

Amirlik shaharlari. Ichki va tashqi savdo. Yirik markaziy shaharlar Buxoro, Samarqand va Toshkentning iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda tutgan o'рни.

Hunarmandchilik. Amirlikda ichki va tashqi savdo va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.

Buxoro amirligining tashqi siyosati. Tashqi siyosatning asosiy tamoyillari. Rossiya, Eron, Hindiston, Usmonli davlati va O'rta Osiyo xonliklari bilan aloqalari. Mintaqada Rossiya-Buyuk Britaniya raqobatchiligi. Raqobat sabablari. Ingliz ekspeditsiyalari.

Buxoro amirligida madaniy hayot. Tarix ilmi, adabiyot, san'at, me'morchilik va musiqaning rivojlanishi. Madrasa va maktab ta'limi. Talabalar va mudarrislar faoliyati. Ta'lim bosqichlari. Madrasa va mudarrislar ta'minoti.

3-bob. Xiva xonligi

Xiva xonligining tashkil topishi. Safaviylarga qarshi Vazir va Urganch shaharlaridagi kurash. Xiva xonligining tashkil topishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. XVI asrda Xiva-Buxoro munosabatlari.

XVII-XVIII asrning birinchi yarmida xonlikdagi siyosiy ahvol. Siyosiy parokandalik. Xiva – Buxoro munosabatlari. Xiva xonligida chet davlatlar manfaatlarining to'qnashuvi. Abulg'ozixon va Anushaxon davrida Buxoro – Xiva o'rtasidagi urushlar. Elbarsxon davrida Eron shohi Nodirshoh hujumi.

Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. Xivada siyosiy parokandalik. Muhammad Amin Inoq faoliyati. Qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi (1770-1920).

XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida xonlikning siyosiy ahvoli. Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligining birlashtirilishi. Islohotlar. Kengash (Devon) ta'sis etilishi. Ollohqulixon davrida Xiva xonligi.

Xiva xonligida davlat boshqaruvi. Xonlikning hududi va aholisi. Mamlakatning ma'muriy boshqaruv tizimi. Saroy unvonlari: harbiy-ma'muriy va diniy amaldorlar. Sud tizimi. Qo'shin tuzilishi va boshqarilish tartiblari. Harbiy mansab va unvonlar. Qo'shin ta'minoti.

Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Shaharlar hayoti. Yer egaligi. Aholining etnik tarkibi. Qishloq xo'jaligi. Suv inshootlari va sug'orish tizimi. Dehqonlar va chorvador aholining ahvoli. Soliq siyosati. Soliq va majburiyatlar.

Shahar va shaharliklarning turmush tarzi. Vazir, Ko'hna Urganch, Yangi Urganch va Xiva Xorazm poytaxtlari sifatida. Hunarmandchilik va chorvachilik. Ichki va tashqi savdo.

Xiva xonligining tashqi siyosati. Xiva xonligining qo'shni davlatlar – Buxoro, Qo'qon, Afg'oniston va Rossiya davlatlari bilan munosabatlari. Rossiyaning Xiva xonligiga uyushtirgan ekspeditsiyalari va uning maqsadlari.

Xiva xonligida madaniy hayot. Adabiyot va tarixnavislik. Ilm-fan. Maktab va madrasa ta'limi. Ta'lim muassasalar holati va ularning ta'minoti. Talabalar ahvoli, o'qitish dasturlari.

Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar. Arxiv hujjatlari, mahalliy tarixchilarning asarlari va ularda xonlik tarixining yoritilishi. Xiva xonligi tarixi bo'yicha rus mualliflarining asarlari. Yevropa sayyohlari va olimlarining asarlari. O'zbek olimlarining xonlik tarixi bo'yicha yozgan asarlari.

XVI – XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar. Qoraqalpoq urug'larining joylashuvi. Qoraqalpoqlar Xiva xonligi tarkibida. Qoraqalpoqlarning xo'jalik hayoti. Qoraqalpoqlarning Rossiya va Xiva bilan munosabatlari. Qoraqalpoqlarning o'z mustaqilligi uchun kurashi. Ijtimoiy hayot. Chorvachilik va dehqonchilikning kuchayishi.

4-bob. XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi

Qo'qon xonligining tashkil topishi. Ashtarxoniylar sulolasi Ubaydullaxon davrida Farg'onada mustaqil davlatning tuzilishi. Minglar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Shohruxbiy va uning vorislari davrida Qo'qon xonligi hududining kengayishi. Erdonobiy va Norbo'tabek davrida markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Toshkent. Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Toshkent hokimligining tashkil topishi. Toshkent – Rossiya munosabatlari.

XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligida siyosiy ahvol. Olimxon davrida Qo'qonning siyosiy mavqeini kuchayishi. Xonlik hududining kengayishi. Umarxon davrida Qo'qonning yuksalishi. Qo'qon-Buxoro munosabatlarining keskinlashuvi. Xudoyorxon davrida qipchoqlarning kuchayishi va Musulmonqul faoliyati.

Qo'qon xonligida davlat boshqaruvi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Xonlikning hududi va aholisi. Davlat boshqaruv tizimi va ma'muriy tuzilishi. Yuqori davlat lavozimlari.

Er egaligi, soliqlar va majburiyatlar. Hunarmandchilik va savdo. Shaharlar hayoti: Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshkent.

Qo'qon xonligining tashqi siyosati. Qo'qon – Xitoy munosabatlari. Qo'qon va qo'shni davlatlar munosabatlari. Qo'qon-Rossiya munosabatlari.

Qo'qon xonligida madaniy hayot. Umarxon davri va madaniy muhitning shakllanishi. Maxmur va Gulxaniy. Uvaysiy, Mohlaroyim - Nodira, Boborahim Mashrab. Tarixnavislik, san'at va me'morchilik.

Maktab va madrasa ta'limi. Ta'lim muassasalari holati va ularning ta'minoti. Talabalar ahvoli, o'qitish dasturlari.

8-SINF JAHON TARIXI

1-bob. Yevropada yangi davrning boshlanishi (4 soat)

Kirish. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati. “Yangi tarix” tushunchasi. Yangi davr tarixini davrlashtirish. Agrar sivilizasiyadan industrial sivilizasiyaga o'tish. Industrial jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy asoslari. Yangi tarixning bosqichlari. Yangi tarixning asosiy manbalari.

Texnikaning rivojlanishi: buyuk ixtirolar, metallurgiya va metalga ishlov berishning takomillashuvi, harbiy texnikaning rivojlanishi. Amerikaning kashf etilishi. Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi. Tinch okeani havzasidagi geografik kashfiyotlar. Jahon mustamlaka tizimining shakllanishi. Yevropa uchun geografik kashfiyotlarning oqibatlari. Yevropaliklarning mustamlakalar uchun kurashi. Ispan, portugallarning talonchilik, bosqinchilik siyosatlari. Bosib olingan yerlarning mustamlakaga aylantirilishi. Qul savdosi.

Yangi davr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida industrial jamiyatning shakllanishi.

Yangicha iqtisod va ijtimoiy tabaqalarning shakllanishi. Savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi. “Narx-navo inqilobi” va banklarning paydo bo'lishi. Ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi. Sanoat korxonalarining rivojlanishi. Shaharlar rolining ortib borishi. Kapitalistik munosabatlarning paydo bo'lishi. Yangi jamiyat kishilari.

Yevropada reformasiya. Katolik cherkovining holati. Inson haqida yangicha qarashlarning shakllanishi. Germaniyaning siyosiy jihatdan tarqoqligi. Germaniyada katolik cherkovi. Germaniyada reformasiya va dehqonlar urushining ahamiyati. Reformasiyaning Yevropaga yoyilishi. Katolik cherkovining reformasiyaga qarshi kurashi. Niderlandiya burjua inqilobi.

G'arbiy Yevropada yangi davr madaniyatining shakllanishi. Uyg'onish davri madaniyati. Gumanizm va uning Yevropa madaniyatiga ta'siri. Turmush madaniyatidagi o'zgarishlar. XV asr oxiri – XVII asr boshlarida G'arbiy Yevropada adabiyot, musiqa va san'ati. Tomas Mor, Servantes, Fransua Rable, Uilyam Shekspir, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafayel Santi, Rembrandt asarlarida insonparvarlik g'oyalarining aks etishi. Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley, Jon Lokk, Isaak Nyuton va ularning ilmiy kashfiyotlari.

2-bob. XVI-XVIII asrlarda Evropa va Amerika mamlakatlari (8 soat)

Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi. XVIII asrda Angliya burjua inqilobi. Mutlaq monarxiya. Angliya Yelizaveta I hukmronligi davrida. Dengizda hukmronlik uchun kurash. Ingliz burjua inqilobining boshlanish

sabablari. Feodal tartiblarning jamiyat taraqqiyotiga to'sqinligi. Fuqarolar urushi va uning oqibatlari. Armiyada parlamentning mo'tadil burjua islohotlari. Agrar qonunlar. Armiya va parlament ixtiloflari. Levellerlar harakati. Respublikaning e'lon qilinishi. Ingliz burjua inqilobining xarakteri va tarixiy ahamiyati. Anliyaning dunyoda birinchi sanoat mamlakatiga aylanishi. Tashqi siyosat.

Fransiyada mutlaq monarxiya. Fransiya burjua inqilobi.

Fransiyada agrar munosabatlar. Qirol hokimiyatining mustahkamlanishi. Dehqonlarning ahvoli. Manufaktura va savdoning rivojlanishi. Fransiyada burjuaziya va dvoryanlar. Ichki va tashqi siyosat. Fransiyada mutlaq monarxiyaning kuchayishi, dehqonlarning ahvoli. Fransiyada burjua inqilobining boshlanishi. Burjuaziyaning hokimiyatga kelishi. Fransiyaning respublika deb e'lon qilinishi. Buyuk fransuz burjua inqilobining yakunlanishi va tarixiy ahamiyati. «Fuqaro va inson huquqlari deklarasiyasi»ning qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Fransiya Yakobinchilar diktaturasining o'rnatilishi. Qirolning qatl qilinishi. Yakobinchilarning ichki siyosati. Yakobinchilar inqirozining sabablari. Yakobinchilarning ag'darilishi. Direktoriya. 1799 yil 19 noyabrdagi davlat to'ntarishi. Buyuk fransuz burjua inqilobining tarixiy ahamiyati.

XVI-XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi. Iqtisodiy ahvol. Nemis shaharlarining xalqaro savdoga jalb qilinishi. Shaharlar rivojlanishi. Siyosiy tuzum. Dehqonlar urushining Germaniyadagi siyosiy tarqoqlikka ta'siri. Germaniya imperiyasida Avstriyaning holati. Siyosiy kurash. Germaniyaning xalqaro ahvoli. Prussiya qirolligining tashkil topishi.

XVI-XVIII asrlarda Rossiya imperiyasi. XVI-XVIII asrlarda Rossiyadagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat. Dvoryanlarning kuchayishi. Rossiyaning tashqi siyosati. Qozon va Sharqiy Sibirning bosib olinishi. Astraxan xonligining bo'ysundirilishi. Boltiq dengiziga chiqish uchun kurash. Rus xalqining polyak va shved bosqinchilariga qarshi kurashi. Barshchina xo'jaligi. Yangi iqtisodiy islohotlar. Manufakturaning vujudga kelishi. Rus millatining shakllanishi. Yangi iqtisodiy munosabatlarning vujudga kelishi. Ichki va tashqi siyosat. Qora dengizni egallash uchun urinish. Madaniyat va san'at.

XVIII asrlarda Shimoliy Amerika. Amerika Qo'shma Shtatlarining tashkil topishi. Shimoliy Amerikaning tub aholisi bilan kelgindilar o'rtasidagi munosabat. Amerikadagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Angliya bilan munosabatlarning keskinlashuvi. Mustaqillik uchun kurashning boshlanishi. «Mustaqillik deklarasiyasi». AQSHning tashkil topishi. AQSH Konstitusiyasi, Mustaqillik uchun olib borilgan urushning natijalari, ahamiyati va saboqlari. Madaniyat va san'at.

Ma'rifat asri. XVI-XVIII asrlarda Yevropada ilm-fan rivojlanishi. XVIII asrda G'arbiy Yevropa davlatlarida ma'rifat asri. Ma'rifatparvar olimlarning faoliyati.

3-bob. XVI-XVIII asrlarda Osiyo mamlakatlari (8 soat)

XVIII asrlarda Osiyo mamlakatlari rivojlanishining asosiy xususiyatlari. XVI-XVIII asrlarda Osiyo mamlakatlarida ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari. Kishilar hayotining davlat tomonidan tartibga solinishi. Xo'jalik yuritishning jamoa usuli. Osiyo mamlakatlarida dinning kishilar hayotidagi o'рни. Turmush madaniyati. Musiqa, adabiyot va san'at.

XVI-XVIII asrlarda Xitoy. Xitoy Minlar sulolasi hukmronligi ostida. XVI asrda Xitoydagi siyosiy hayot. Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning rivoji. Dehqonlar qo'zg'olonlari. Shaharlar taraqqiyoti. Ijtimoiy ong va madaniyat. Xitoyga yevropaliklarning kirib kelishi. Min sulolasining inqirozga yuz tutishi. Manjurlar hukmronligi. Bosqinchilik siyosati.

XVI-XVIII asrlarda Hindiston. XVI asr boshlarida Hindistonda siyosiy parokandalik. Boburiylar imperiyasining tashkil topishi. Imperiyadagi ichki va tashqi siyosat. Ijtimoiy-iqtisodiy holat. Humoyun hukmronligi davridagi inqiroz. Akbarshoh va uning islohotlari. Hindistonda shaharlar, hunarmandchilik va savdo. Xalq harakatlari va Boburiylar imperiyasining parchalanishi. Yevropaliklarning Hindistonga kirib kelishi. Angliya va Hindiston munosabatlari.

XVI-XVIII asrlarda Yaponiya va Koreya. Yaponiya siyosiy tarqoqlik va fuqarolar urushlari davrida. Yevropaliklarning kirib kelishi. Yaponiyani birlashtirish uchun kurash. Yaponiya Tokugavalar syogunati davrida. "Yaponiyaning yopilishi". Koreyaning ijtimoiy tuzumi. XVI asrdagi siyosiy rivojlanish. 1592–1598 yillardagi Yaponiya bosqini. XVIII asrda manchjurlarning kirib kelishi. Islohotchilik urunishlari. Qirol Yonchjon.

XVI-XVIII asrlarda Usmoniylar imperiyasi. Imperiyaning yuksalishi va bosqinchilik siyosati. Sulton Salim I va Sulaymon I ning bosqinchilik yurishlari. Imperiyaning iqtisodiy ahvoli. Davlat tuzumi. Armiya. XVIII asrda Usmoniylar davlatining ichki va tashqi ahvoli. Usmoniylar imperiyasi inqirozining boshlanishi. Salim III islohotlari. Yevropa davlatlariga qaramlikning boshlanishi. Madaniyat.

XVI-XVIII asrlarda Eron. Safaviylar hokimiyatining o'rnatilishi. Ichki va tashqi siyosat. Safaviylar davrida eronning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi. Shoh Abbos I islohotlari. Shaharlar. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi. Tashqi savdo va tashqi aloqalar. Eronni mustamlakaga aylantirishning boshlanishi. Safaviylar davlatining barham topishi. Afg'onlar istilosi. Nodirshohning hokimiyat tepasiga kelishi. Xojalar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. Adabiyot, san'at va me'morchilik.

4-bob. 1800-1870-yillarda Evropa va Amerika mamlakatlari (5 soat)

1800-1870-yillarda Buyuk Britaniya. XIX asrning boshlarida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Sanoatdagi o'zgarishlarning yuksalishi.

Angliyaning dunyo ustaxonasiga aylanishi. Angliyaning siyosiy o'sishi va mustamlakachilik siyosati. Parlament islohoti. Tashqi siyosat. "Oq koloniyalar". Adabiyot, san'at, arxitektura va fanning rivojlanishi.

1800-1870-yillarda Fransiya. XIX asrning boshlarida Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Fransiya birinchi imperiya. Istilochilik urushlari. Imperiyaning zaiflashuvi. Fransiya-Rossiya urushi. Imperiyaning qulashi. Burbonlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Vena kongressi. "Muqaddas ittifoq". Fransiya ikkinchi imperiyaning o'rnatilishi. Iyul monarxiyasi. Iyul monarxiyasi inqirozi. 1848 yil inqilobi, sabablari va uning natijasi. Ikkinchi imperiya. Adabiyot, san'at, arxitektura va fanning rivojlanishi.

1800-1870-yillarda Germaniya va Italiya. Vena kongressidan so'ng German ittifoqidagi holat. Birlashish uchun kurash. Frankfurt parlamenti. Prussiya va Avstriya o'rtasida Germaniya ittifoqida yetakchilik uchun kurash. Germaniyada inqilobning sabablari va maqsadlari. Germaniyaning birlashuvi. Otto fon Bismark faoliyati. XIX asrning boshlarida Italiya. XIX asrning 20-30-yillaridagi inqiloblar. Iqtisodiy taraqqiyot. Italiyani birlashtirish uchun kurash. Italiya qirolligining tashkil qilinishi. Italiyani birlashtirishning yakunlanishi. Italiya kapitalizmning rivojlanishi. Germaniya va Italiya adabiyot, san'at, arxitektura va fanning rivojlanishi.

1800-1870-yillarda Rossiya. Iqtisodiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari. Samoderjaviya va krepostnoylikka qarshi kurash. Nikolay I hukmronligi va boshqaruvi. Krepostnoy huquqining yemirilishi. Islohotlarning tarixiy ahamiyati. Tashqi siyosat. Adabiyot, san'at, arxitektura va fanning rivojlanishi.

1800-1870-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlari. Amerika Qo'shma Shtatlari. AQSHning iqtisodiy taraqqiyoti. Plantasiya xo'jaligi. Abolisionistlar. Quldorlar isyoni. Fuqarolar urushi. Fuqarolar urushining natijalari. AQSHning fuqarolar urushidan keyingi taraqqiyoti. Amerika qadriyatlarining shakllanishi. Adabiyot, san'at, arxitektura, ta'lim va fanning rivojlanishi..

5-bob. 1800-1870-yillarda Osiyo mamlakatlari (5 soat)

1800-1870-yillarda Yaponiya va Koreya. Dastlabki manufakturalarning paydo bo'lishi. Tokugava hokimiyatiga qarshi muxolifatning kuchayishi va hokimiyat inqirozi. Yaponiyaning kuch bilan "ochilishi" va uning oqibatlari. "Ma'rifatli boshqaruv" davrining boshlanishi.

XIX asr boshlarida Koreyaning ijtimoiy taraqqiyoti. 1830 – 1860-yillarda koreys jamiyatida inqirozning kuchayishi.

1800-1870-yillarda Xitoy. Sin imperiyasi qudratining zaiflashuvi. Birinchi "Afyun urushi". Xitoyning G'arb davlatlari yarim mustamlakasiga aylantirishning boshlanishi. Taypinlar harakati. Ikkinchi "Afyun urushi". XIX asrning ikkinchi yarmida Xitoyda xalq qo'zg'olonlari. "O'z-o'zini kuchaytirish" siyosati. Turmush madaniyati, adabiyot va san'at.

1800-1870-yillarda Hindiston. Angliyaning bosqinchilik siyosati va ingliz mustamlakachilik tartibi. Sipohiyalar qo'zg'oloni. Boburiylar sulolasining tugatilishi. Hindistonda kapitalistik munosabatlarning shakllanishi. Hindiston xalqlarining ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashi. Milliy g'oyaning shakllanishi. Turmush madaniyati, adabiyot va san'at.

1800-1870-yillarda Usmoniylar imperiyasi. Misrning inglizlar tomonidan egallanishi. Salim III ning taxtdan ag'darilishi. Islohotlarning to'xtatilishi. "Misr inqirozi". Mahmud II islohotlari. Chet el kapitali kirib kelishining kuchayishi. Tanzimatning boshlanishi. Qrim urushi va uning oqibatlari. Ma'rifatchilik va konstitusiya uchun harakatning paydo bo'lishi. "Yosh turklar" to'ntarishi va "Midxat konstitusiyasi". Turmush madaniyati, adabiyot va san'at.

1800-1870-yillarda Eron va Afg'oniston. Eronda ingliz-fransuz raqobati. Rus-Eron urushlari. Hirot muammosi va chet el kapitalining Eronga kirib kelishi. Bobiylar qo'zg'oloni. Amir Nizom islohotlari. Eronning G'arb mamlakatlari tomonidan yarim mustamlakaga aylantirilishi. Afg'onistonda Zamonshohning taxtdan ag'darilishi va hokimiyat uchun kurashlarning boshlanishi. Feodal tarqoqlik. Do'st Muhammadning hokimiyat tepasiga kelishi. Byorns va Vitkevich missiyalari. Ingliz-Afg'on urushlari. Eron va Afg'onistonda turmush madaniyati, adabiyoti va san'ati.

9-SINF O‘ZBEKISTON TARIXI

Kirish. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. O‘rganiladigan davrning o‘ziga xos xususiyatlari. Vatan jonajon yurt va qadrdon zamin, eng muqaddas bebaho boylikdir.

I bob. XIX ASR O‘RTALARIDA O‘ZBEK XONLIKLARINING SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi. O‘rta Osiyo davlatlarining hududi. Xiva, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligining hududiy chegaralari. O‘rta Osiyo davlatlarining aholisi.

XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ma‘muriy boshqaruv tizimi. Buxoro amirligining davlat boshqaruvi. Amirlikni mang‘itlar sulolasiga mansub hukmdorlar boshqaruvi. Amirlikda ijro hokimiyati.

Xiva xonligining qo‘ng‘irotlar sulolasi tomonidan boshqarilishi. Xonlikda oliy amaldorlar – devonbegi, qushbegi, mehtar, otaliq.

Qo‘qon xonligining minglar sulolasi tomonidan boshqarilishi. Amir lashkar. Mehtar, qozikalon, qozilar, muftiy, rais, mirshab.

XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Yer egaligi va soliq tizimi. XIX asrda O‘rta Osiyo xonliklari agrar davlatlar. Katta yer egalari, dehqonlarning yer egalari qo‘lida ishlashi. Sug‘orish tizimi va tartiblari. Amudaryo, Sirdaryo suvlari kanallar qazib, to‘g‘onlar qurilib ekin maydonlariga yetkazilgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiq. O‘rta Osiyo savdogarlari Eron, Xitoy, Hindiston, Afg‘oniston, Rossiya davlatlari va qozoq juzlari bilan savdo-sotiq qilganlar.

XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo aholisining madaniy hayoti. Xalq ijodiyoti: baxshilar, qiziqchilar, hofizlar, askiyachilar. Arxitektura.

Takrorlash.

II bob. ROSSIYA IMPERIYASINING O‘RTA OSIYONI BOSIB OLISHI

Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi. Bosib olish uchun tayyorgarlik. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi. Angliya bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun harakatlar. O‘rta Osiyoni bosib olish uchun harbiy istilochilik yurish bosqichlari.

Toshkentning bosib olinishi. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining Toshkentdan boshlanishi. 1865-yilda Niyozbek qal’asidagi janglar. Toshkentni egallanishi.

Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi. Turkiston o‘lkasida mustamlaka boshqaruvining o‘rnatilishi. 1867-yilda markazi Toshkent shahri bo‘lgan Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugi tashkil qilindi. Yangi ma‘muriy hududlarning tashkil qilinishi. 1867-yilgi «Nizom» loyihasi.

Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning boshlanishi. Buxoro amirligi bosib olinishining boshlanishi. 1866-yil 8-mayda Erjar jangi. O‘ratepa va

Jizzax uchun janglar. 1864-1866-yillar davomida bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi Sirdaryo viloyatining tashkil qilinishi.

Buxoro amirligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi. Samarqand uchun jang. Zirabuloq tepaligidagi jang. Samarqandda xalq harakatlari. Buxoro amirligining Rossiya vassaliga aylantirilishi. Podsho hukumati tomonidan yangi bosib olingan hududlarda Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat Zarafshon okrugining tuzilishi. 1873-yildagi shartnoma.

Xiva xonligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi. Xiva xonligiga qarshi Kaufman boshchiligida harbiy yurishlarning boshlanishi. Mang'ishloq, Orenburg, Turkiston va Krasnovodsk okruglarining yurishda ishtirok etishi. 1873-yil 12-avgustda imzolangan Gandimiyon shartnomasi. Xiva xonligi 2 million 200 ming rubl miqdorida tovon to'lanishi.

Qo'qon xonligining bosib olinishi. Qo'qon xonligidagi ichki siyosiy nizolarning kuchayishi. XIX asrning 70-yillarida Qo'qon xonligida ko'plab qo'zg'olonlar. Andijonga uyushtirilgan hujum. Namanganning bosib olinishi. 1876-yil 18-fevralda Qo'qon xonligining tugatilganligi to'g'risidagi farmonning e'lon qilinishi va Qo'qon xonligi hududi o'rnida Farg'ona viloyatining tashkil qilinishi. Turkmanlarning bo'ysundirilishi. Mag'lubiyat sabablari va oqibatlari.

Takrorlash.

III bob. ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI

Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-ma'muriy boshqaruv tizimi. Boshqaruvning mustamlakachilik tartiblari. 1865-yil 6-avgustdagi Aleksandr II «Turkiston viloyatini idora qilish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom». Viloyatlar uyezdlarga, uyezdlar uchastkalarga bo'linishi. Boshqaruv tartiblarining mustamlakachilik xususiyatlari. Turkiston o'lkasining ma'muriy hududiy bo'linishi va boshqaruvi. 1886-yil 12-iyulda imperator Aleksandr III tomonidan yangi «Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risi»dagi Nizomning tasdiqlanishi.

Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining yer-suv siyosati. Qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar. 1886-yilgi «Nizom»da «Turkiston o'lkasining yer tuzilishi». Nizom bo'yicha o'lkada yirik yer egaligi ham tugatildi. Rossiyaning O'rta Osiyoda ko'chirish siyosati. 1875-yilda Avliyootada Rossiyadan kelgan dehqonlarning birinchi manzilgohi paydo bo'ldi. Toshkent shahri va o'lkaning boshqa Yangi Marg'ilon, Samarqand, Andijon kabi shaharlarida ko'chib kelganlarning posyolkalari paydo bo'ldi.

Turkistonda sud tizimi va harbiy politsiya tartibotining o'rnatilishi. Sudlov tizimining mustamlaka manfaatlariga moslashtirilishi. Sud organlarining faoliyati. General-gubernator prokuror va oliy sud vazifasini ham bajargan. XIX asrning oxirida sudlov jarayonidagi o'zgarishlar. 1898-yilda Toshkent sud palatasi tuzildi. Mustamlaka tartibotini kuchaytirish yo'llari. O'rta Osiyoga temir yo'llarning o'tkazilishi. O'lkada harbiy politsiya tartiboti. 1881-yilgi «Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo'riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Nizom». 1892-

yildan 1916-yilga qadar Turkistonda «kuchaytirilgan qo‘riqlav». Mahalliy aholi armiyada xizmat qilishdan ozod etildi.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Iqtisodiyotning mustamlakachilik manfaatlariga bo‘ysundirilishi. 1867-1900-yillarda Turkiston general-gubernatorligida ishga tushirilgan 175 ta sanoat korxonasi. Paxta xomashyosiga bo‘lgan ehtiyoj. 1884-yilda Turkistonda yangi paxta navi (Amerika navi) yetishtirish boshlandi.

IV bob. XIX ASR OXIRIDA TURKISTONDAGI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI

Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarining boshlanishi va uning sabablari. Mustamlakachilik jabr-zulmining kuchayishi. Turkistonda milliy ozodlik harakatlarining sabablari. Milliy ozodlik harakatlarining boshlanishi. Xalq harakatlariga qarshi jazo tadbirlarining kuchayishi.

Toshkentda “Vabo isyoni”. Qo‘zg‘olonning boshlanish sabablari. Qo‘zg‘olonning boshlanishi. “Vabo isyoni”, “Toshotar voqeasi”. Qo‘zg‘olon bostirilgandan keyingi chora-tadbirlar. 1892-yil 18-iyundan «Harbiy holatda deb e‘lon qilingan joylar haqida Qoida»ning kuchga kirishi.

Andijon qo‘zg‘oloni. Qo‘zg‘olonning sabablari. 1891-yilda Rossiyadan aholining Farg‘ona viloyatiga ko‘plab ko‘chirib keltirilishi. Qo‘zg‘olonning boshlanishi. Qo‘zg‘olonchilarning xatolari. Qo‘zg‘olonning bostirilishi.

Milliy-ozodlik harakatlarining ahamiyati. XIX asr oxiridagi qo‘zg‘olonlarning umumiy xususiyatlari. Qo‘zg‘olonlarning ahamiyati. Milliy ozodlik harakatida. O‘zbeklar, qirg‘izlar, tojiklar, turkmanlarning mustamlakachilarga qarshi kurash olib borishi.

V bob. XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLAR

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti. XIX asrda Qoraqalpoqlar. Qoraqalpoqlarning ijtimoiy hayoti. Qoraqalpoq ulusining shakllanishi. Ho‘jaligi va mashg‘ulotlari. Qoraqalpoqlarda urug‘chilik va qabilaviy munosabatlar. Urf-odatlar va turmush tarzi.

Soliq va majburiyatlar. Xalq qo‘zg‘olonlari. Soliq va majburiyat turlari. Xalq qo‘zg‘olonlarini kelib chiqishi.

Qoraqalpoqlar Turkiston general-gubernatorligi tarkibida. Gandimiyon shartnomasidan so‘ng Qoraqalpoqlar hayotidagi o‘zgarishlar. 1870-yillarning boshlariga kelib o‘troq turmush kechirishga o‘tishi. XIX asrning 70-yillarida Qoraqalpoqlarning ma‘muriy markazi Chimboy. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar.

XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida qoraqalpoqlar madaniyati. Xalq og‘zaki ijodiyoti. «Qirg‘ qiz» dostoni. Ilm-fan. Qoraqum eshon va Tosh madrasalar.

Takrorlash.

VI bob. JADIDLAR HARAKATI VA UNING TURKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Jadidchilik harakatining vujudga kelishi. Turkistonda jadidchilik oqimi paydo bo'lishining shart-sharoitlari. Jadidchilik harakati vujudga kelishi. Jadidchilik harakatining Turkistonga yoyilishi. Qo'qon, Andijon, Toshkentda jadid maktablarining ochilishi.

Jadidlarning dasturiy maqsad va vazifalari. Jadidlarning g'oyalari va mafkurasi. Hurriyat, Musavvat, Adolat (Ozodlik, Tenglik, Adolat). Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Xiva shaharlari jadidchilik harakati markaziga aylandi.

Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati. Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyondalari. Turkiston jadidlar harakatining milliy xususiyatlari. Turkiston jadidlari podsho yakka hukmronligiga qarshi turishi. Jadidlar yoshlarni chet elda o'qitish tarafdorlari.

Jadidchilik harakatining Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga ta'siri. Jadidlar faoliyatining kuchayishi. Jadidlar faoliyatining Turkiston aholisi hayotiga ta'siri. Jadidlarning Islom diniga bo'lgan munosabati. Rossiyadagi siyosiy jarayonlar ta'sirida jadidlar harakatining faollashuvi.

Xorazmda jadidlar siyosiy partiyasining tashkil topishi. Yosh xivaliklar. Buxoroda Yosh buxoroliklar partiyasining tuzulishi. 1917-yil mart Toshkentda jadidlarning yangi partiyasi «Milliy markaz».

Nazorat ishi.

VII bob. TURKISTON VA BIRINCHI JAHON URUSHI

Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta'siri. Birinchi jahon urushining Turkistonga ta'siri. 1914-yil Turkistonda "Favqulotda muhofaza holati". 1916-yil 25-iyunda Rossiya imperatori Nikolay II ning (1894-1917) "Front orqasidagi xizmatlar uchun Turkiston, Sibir va Kavkazdan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar safarbarligi"ni e'lon qilishi.

Turkistonda 1916-yilgi qo'zg'olonlarning boshlanishi. Qo'zg'olonning boshlanish sabablari. 1916-yil 4-iyulda Xo'jand shahrida norozilik. Qo'zg'olonning Turkiston bo'ylab tarqalishi.

Jizzax qo'zg'oloni. Qo'zg'olonning boshlanishi. Qo'zg'olonning bostirilishi. 1916-yil Jizzax qo'zg'olonining ahamiyati va uning oqibatlari.

Turkistonda 1916-yilgi voqealarning oqibatlari va ahamiyati. Qo'zg'olonning yengilish sabablari va oqibatlari. Qo'zg'olonning ahamiyati. Podsho hukumati tomonidan Turkiston aholisining mardikorlikka safarbar qilinishi mahalliy aholining ko'plab norozilik harakatlarga sabab bo'lishi. 1916-yildagi qo'zg'olonlar podsho hukumati tomonidan zamonaviy qurollar yordamida bostirilishi. Qo'zg'olon ishtirokchilari podsho hukumati tomonidan jazolanishi.

Takrorlash.

VIII BO'LIM. XIX ASR OXIRI–XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI VA XIVA XONLIGI

Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli. “Rossiya imperatorining siyosiy agentligi” Soliq va majburiyatlar. Xalq qo'zg'olonlari. Baljuvonda, Ko'lob bekligida, Kalifda dehqonlar qo'zg'oloni. Hunarmandchilik. Savdo-sotiq munosabatlari. Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Eron bilan savdo-sotiq.

Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi. «Yosh buxoroliklar». Amir Olimxon islohotlari. 1917-yildagi namoyishlar. 1920-yil 29-avgustda Chorjo'yda qo'zg'olon uyushtirilishi. Buxoro amirligining qulashi. 1920-yil BXSr ning tashkil qiliishi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Xonlikning ijtimoiy-siyosiy tuzumi. Xonlik ma'muriy jihatdan 20 ta beklikka bo'linganligi. Ulardan eng yiriklari Hazorasp, Urganch, Qiyot, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Qo'ng'iro't. Mehtar (bosh vazir) va devonbegi (devonxona mutasaddisi). Yer egaligi. Soliq va majburiyatlar. Sanoatning rivojlanishi. Dastlabki paxta tozalash zavodlari. Xonlikning Rossiya imperiyasi bilan savdo aloqalari. 1885-yilda Kaspiyorti temir yo'lining qurilishi, 1887-yil oxirlarida Amudaryo flotiliyasi ta'sis etilishi. Hunarmandchilik va ichki savdo. Kasanachilikning rivojlanishi.

Xiva xonligining tugatilishi. Mamlakatda xalq harakatlarining kuchayib borishi. Yosh xivaliklarning faoliyati. Islohotlar uchun kurash. Xonlikning tugatilishi. 1920-yil 27-aprel XXSRning e'lon qilinishi.

Takrorlash.

IX bob. MUSTAMLAKA SHAROITIDA TURKISTONDA MADANIY HAYOT

Ta'lim tizimi. Matbuot. An'anaviy ta'lim muassasalari. Rus-tuzem maktablari. Yangi usul maktablari. Mustamlakachi hukumatning yangi usul maktablariga qarshi kurashi. Matbuot va jurnalistika. Ilk o'zbek gazetasi.

Turkistonda ilm-fan taraqqiyoti. Tarix fanidagi yutuqlar. Mulla Olim Mahdum Hoji «Tarixi Turkiston». Tabiiy fanlarning rivojlanishi. Adabiyotda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi.

Teatr va musiqa san'ati. Turkistonda xalq teatri. Turkistonga Yevropa va rus teatrlarining kirib kelishi. Jadid teatrlarining vujudga kelishi. Turkistonda 1911-yil dastlabki yozma milliy sahna asarlar. Musiqa san'ati.

Me'morchilik va tasviriy san'at. Me'morchilik maktablari. Xorazm me'morchilik maktabi. Buxoro me'morchilik maktabi. Yevropa uslubidagi binolar qurilishi. Sitorai Mohi Xosa, Nurillaboy saroyi Sharq va G'arb an'analari asosida bunyod etilganligi. Tasviriy san'at. Naqsh amaliy san'at markazi Buxoro.

Takrorlash.

Yakuniy nazorat ishi.

9-SINF JAHON TARIXI

Kirish.

XIX asrning 70 yillaridan 1918 yilgacha bo'lgan davr va undagi o'zgarishlar. Yangi bozor iqtisodiyotining vujudga kelishi va kapitalizm taraqqiyoti.

1-bob. Dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy manzarasi (2 soat)

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yuz bergan tub o'zgarishlar. Yangi tarix birinchi davrning asosiy xususiyatlari va bu davrda jamiyat taraqqiyotining umumiy yakunlari. Siyosiy demokratiya, yuqori tabaqalarning hukmronlik shakli.

Industrial sivilizatsiya. Ishlab chiqarishning nihoyat darajada konsentratsiyalashuvi va millatlararo korporatsiyalarning tuzilishi. Yangi yo'nalishdagi partiyalarning paydo bo'lishi. Ikkinchi Baynalmilalning halokati va yangi tipdagi Baynalmilal tuzish uchun kurashning kuchayishi.

2-bob. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa va Amerika davlatlari (9 soat)

Fransiya-Prussiya urushi va uning yakunlari. Fransiya-Prussiya urushi arafasida ikkala mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli. Fransiya-Prussiya urushining sabablari. Urush harakatlarining borishi va Sedan jangi. Parijning taslim bo'lishi. Frankfurt sulhi. Fransiyada ijtimoiy-siyosiy ahvol. Xalq noroziliklari. Parij Kommunas. Kommunada siyosiy guruhlar kurashi. Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti. Yollanma ishchilarning norozilik harakati. Aholining turmush tarzi.

Fransiyaning ichki va tashqi siyosati. 1875 yil Konstitusiyasi. Uchinchi Respublikaning inqirozi. Dreyfus ishi. Hukumatning ichki siyosati. Puankarening ichki va tashqi siyosati. Fransiyaning tashqi siyosati. Mustamlakachilik agressiyasi. Rossiya-Fransiya ittifoqi. Siyosiy inqirozning yetilishi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Germaniya. Imperiyaning tashkil topishi. XIX asrning oxirida Germaniya. Germaniyani birlashtirishning tugallanishi. 1871-yilgi imperiya Konstitusiyasi.

Imperiyaning ichki va tashqi siyosati. Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti. "Kultur kampf", socialistik harakati. «Favqulodda qonun». Bismarkning tashqi siyosati. Germaniyaning mustamlakachilik siyosati. Mamlakat aholisining turmush tarzi. Siyosiy inqiroz. Germaniyaning tashqi siyosati. Dunyoni qayta bo'lib olish bo'yicha Germaniya hukumatining tadbirlari. Mustamlakalar uchun kurash. Bag'dod temir yo'li. "Uchlar ittifoqi".

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Buyuk Britaniyaning siyosiy va iqtisodiy ahvoli. Buyuk Britaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti va uning orqada qolishi. Mamlakat aholisining turmush tarzi. Tred-yunionlar.

Buyuk Britaniyaning ichki siyosati va tashqi siyosati. Leyborizm. 1911 yil parlament islohoti. Siyosiy inqiroz. Irlandiya masalasi. Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik siyosati. Dunyoni qayta bo'lib olish bo'yicha Germaniya hukumatining tadbirlari. Buyuk Britaniya – Rossiya munosabatlari. Afrikadagi mustamlakalar. Buyuk Britaniyaning xalqaro ahvoli.

Amerika Qo'shma Shtatlari. AQSHning iqtisodiy jihatdan tez rivojlanishi. Janubdagi o'zgarishlar. G'arbga siljish. Sanoatning yangi bosqichga ko'tarilishi. Qishloq xo'jaligida kapitalizm taraqqiyotining "amerikacha yo'li".

AQSHning ichki va tashqi siyosati. AQSHning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Mamlakat aholisining turmush tarzi. Qora tanlilar va hindular ahvoli. AQSHning tashqi siyosati. Ispaniya-Amerika urushi. AQSHning jahonda hukmronlik uchun kurashi. Panama kanali. Panamerika ittifoqi. "Dollar diplomatiyasi", "Yo'g'on kaltak" siyosati. "Ochiq eshiklar" va "Teng imkoniyatlar" doktrinasi. Vilson hukumatining tashqi siyosati.

3-bob. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi, markaziy va janubiy-sharqiy Evropa davlatlari (5 soat)

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli. Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti. Ishchilar ahvoli. Ichki bozorning o'sishi. Dastlabki monopolistik birlashmalarning vujudga kelishi. Chet el kapitali. Rossiyada ijtimoiy harakat va ijtimoiy-siyosiy fikrlarning rivojlanishi.

Rossiya imperiyasining tashqi siyosati. Rossiya tashqi siyosati. 1877-1878 yillarda rus-turk urushi. San-Stefano shartnomasi. Berlin kongressi. Uzoq Sharq inqirozi va Rossiyaning tutgan siyosati. Rus-yapon urushi va uning yakunlari. O'rta Osiyo davlatlarining bosib olinishi. Podsho Rossiyasining mustamlakachilik va ruslashtirish siyosati.

XX asr boshlarida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli. Monopolistik birlashmalarning o'sishi. 1905-yilgi rus inqilobi. Davlat dumas.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Avstriya-Vengriya imperiyasi. Avstriya Vengriyaning siyosiy-iqtisodiy taraqqiyoti. Mamlakat aholisining turmush tarzi. Trializim. Milliy ozodlik harakati. Chexiyadagi iqtisodiy va siyosiy ahvol. Iqtisodiy inqiroz. Tashqi siyosat. Avstriya, Vengriya, Rossiya munosabatlari. Bolqondagi agressiv harakat. "Uchlar ittifoqi"ning tashkil topishi. Germaniya bilan munosabat.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Italiya. XX asr boshlarida Italiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Jolittining siyosati. Italiya birlashtirilgandan keyin uning iqtisodiy ahvoli. Immigrasiya. Siyosiy inqiroz. Italiyaning tashqi siyosati. Fransiya bilan munosabat. Uchlar ittifoqiga kirish. Afrikadagi mustamlakachilik

agressiyasi. Italiyaning boshqa davlatlar bilan munosabati. 1911-1912-yillardagi Italiya-Turkiya urushi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Bolqon davlatlari. XIX asr oxirida - XX asr boshlarida Bolqon davlatlari. Iqtisodiy taraqqiyot. Xalq norozilik harakatlari. Yevropa davlatlarining Bolqondagi siyosati. Bolgariya, Serbiya va Albaniyadagi ahvol

4-bob. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Osiyo davlatlari (6 soat)

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya. XIX asrning oxirida Yaponiyada bozor iqtisodiyotining rivojlanishi. Yaponiyani industrilashtirishning xarakteri va xususiyatlari. Sanoatni rivojlantirishda davlatning roli. 1889-yil Konstitutsiyasi. Xalqning ahvoli. Yaponiyaning tashqi siyosati. Yaponiya-Xitoy urushi. Yaponiyaning tashqi siyosati. Rus – yapon urushi. Koreyaning anneksiya qilinishi.

XIX asrning oxirida Xitoy. XIX asrning oxirida Xitoyning yarim mustamlakaga aylanishi. Xalq norozik harakatlari. Xitoyda sanoat taraqqiyotining boshlanishi va uning hususiyatlari. Xitoyga qarshi tashqi agressiyaning kuchayishi. Xitoyning ta'sir doiralarga bo'linishi. AQSHning Xitoydagi siyosati va Xey doktrinasi. Sakkiz davlatning Xitoyga qarshi intervensiyasi.

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Hindiston. Hindiston xalqlarining mustaqillikka qarshi ozodlik kurashi. Yirik sanoat ishlab chiqarishning paydo bo'lishi. "Hindiston milliy kongressi" partiyasining tuzilishi. Bengaliyaning bo'linishi. Inqilobiy harakatning boshlanishi va uning oqibati. Birinchi jahon urushi arafasida Hindiston.

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Eron. Eronning yarim mustamlakaga aylanishi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi. Milliy harakatning paydo bo'lishi. Mustamlakachilarga qarshi xalq norozilik harakatlari va uning oqibatlari. Buyuk davlatlarning Erondagi siyosati.

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Afg'oniston. Ikkinchi ingliz-afg'on urushi va uning oqibatlari. Dyurandda bitim. Afg'onistonning ichki va tashqi siyosati. Afg'oniston bo'yicha Angliya-Rossiya munosabatlari. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Usmonli davlati. XIX asrning oxirida Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishi. XIX asrning oxirlarida Usmoniylar imperiyasining inqirozi. Bag'dod temir yo'li. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va burjua milliy harakatining tug'ilishi. "Birlik va taraqqiyot" partiyasining tuzilishi. 1908-yilgi "Yosh turklar" inqilobi. 1909-yilgi aksilinqilobiy harakat. Buyuk davlatlarning Turkiya inqilobiga munosabati.

5-bob. 1914-1918-yillardagi birinchi jahon urushi (4 soat)

Birinchi jahon urushining boshlanishi va borishi. Jahon urushining boshlanishi va sabablari. 1914-1915-yillardagi urush harakatlari. Dunyoni qaytadan bo'lib olish uchun kurashning kuchayishi. Urush yillarida davlatlar o'rtasida o'zaro ziddiyatlarning kuchayishi va urushning xarakteri. Germaniyaning strategik rejasi. 1914-yil G'arbiy frontdagi urush harakatlari.

1916-1917-yillardagi urush harakatlari. G'arbiy frontda pozision urushga o'tilishi. Italiya va Bolgariyaning urushga kirishi. 1915-yil Sharqiy frontda va dengizdagi urush harakatlari. Birinchi jahon urushida sharq mamlakatlarining ishtiroki. Ruminiyaning urushga kirishi.

Birinchi jahon urushining yakunlari va oqibatlari. Antanta davlatlarining g'arbiy frontdagi muvaffaqiyatsizliklari. Dunyoni qaytadan bo'lib olish uchun maxfiy bitimlar. 1917-1918-yillardagi urush harakatlari. AQSHning urushga kirishi. Rossiyaning urushdan chiqishi. Kompen yarash bitimi.

6-bob. XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida fan va madaniyatning rivojlanishi (4 soat)

Moddiy ishlab chiqarishda texnika va fan taraqqiyoti. Transport va temir yo'llar. Elektrdan foydalanish. Kemasozlik. Binokorlikda metall va oynadan foydalanish. Metallurgiya, mashinasozlik. Neftni qayta ishlash, ichki yonuv dvigatellari, samolyotsozlik, energetika, radio telefon, harbiy texnikaning ixtiro qilinishi.

Aniq va tabiiy fanlar rivoji. Matematika, kimyo, fizika fanlari rivoji. Tibbiyot sohasida erishilgan yutuqlar.

Xalq ta'limi. Gumanitar fanlar. San'at. Adabiyot. Xalq maorifi tizimi va undagi g'oyalarni asarlarda yoritilishi. Falsafa va mustamlakachilik g'oyalari. Tanqidiy realizm. Naturalizm. Dekadentlik.

10-SINF
O'ZBEKISTON TARIXI
(34 soat)

Kirish.

Mustamlaka va sovet davri tarixining murakkabligi va uni o'rganishning o'ziga

xos xususiyatlari. Vatan jonajon yurt va qadrdon zamin, eng muqaddas bebaho boylikdir.

Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol.

XIX asrning o'rtalarida xonliklardagi siyosiy ahvol: o'zaro nizolar, urushlar, tarqoqlik. Xonliklarda feodal munosabatlarning hukmronligi. XIX asrning 50-

yillarida xonliklarning iqtisodiy holati. Dehqon va hunarmandlarning ahvoli va turmush tarzi. Diniy muttassiblik. Xonliklarda ilm-fan va ta'limning ahvoli.

Xonliklarning harbiy qo'shinlari. O'rta Osiyoda Rossiya-Angliya raqobati.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga yurishi va Turkiston general- gubernatorligining tashkil topishi.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga qiziqish bildirishining siyosiy va iqtisodiy sabablari. Xonliklarni bosib olishga siyosiy va ilmiy jihatdan tayyorgarlik ko'rish. Istilochilik yurishning bosqichlari. Qo'qon xonligining shimoliy hududlarini bosib olinishi. Toshkentning zabt etilishi. 1865-yil 6-avgustdagi "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi muvaqqat nizom". Erjar jangi. Xo'jand, O'ratepa, Jizzax shaharlarini egallanishi. Sirdaryo viloyatining tuzilishi. Turkiston general- gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugining tuzilishi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylanishi.

Kaufmanning Samarqandga yurishi: Cho'ponota va Zirabuloq tepaliklaridagi janglar. Bosqinchilarga qarshi xalq harakatlari. Buxoro amirligining Rossiya vassaliga aylantirilishi. Podsho Rossiyasi hukumati tomonidan Zarafshon okrugining tuzilishi. 1873-yildagi shartnoma.

Xiva xonligiga qarshi Kaufman boshchiligida harbiy yurishlarning boshlanishi. 1873-yil 12-avgustda imzolangan Gandimiyon shartnomasi. 1875-yilgi qo'zg'olon. Andijonga uyushtirilgan hujum. Namanganning bosib olinishi. 1876-yil 18-fevralda Qo'qon xonligining tugatilganligi to'g'risidagi farmon va Farg'ona viloyatining tashkil qilinishi. Turkmanlarning bo'ysundirilishi.

Mag'lubiyat sabablari va oqibatlari.

Turkiston o'lkasida siyosiy-ma'muriy boshqaruvi tizimi (1867–1917-yillar).

Turkiston o'lkasida mustamlaka boshqaruvining o'rnatilishi. 1865-yil 6-avgustdagi Aleksandr II "Turkiston viloyatini idora qilish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom". Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy hududiy bo'linishi. 1867-yilgi "Nizom" loyihasi.

Boshqaruvning mustamlakachilik tartiblari va xususiyatlari. 1886-yil 12-iyulda imperator Aleksandr III tomonidan yangi "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risi"dagi Nizomning tasdiqlanishi. Sudlov tizimidagi o'zgarishlar va harbiy politsiya tartibotining o'rnatilishi. Turkiston rayon muhofaza bo'limi faoliyati.

Turkistonda Rossiya imperiyasiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari.

Mustamlakachilik jabr-zulmining kuchayishi. Turkistonda milliy ozodlik harakatlarining sabablari. Toshkentda "Vabo isyoni". Qo'zg'olonning boshlanish sabablari. "Vabo isyoni", "Toshotar voqeasi". Qo'zg'olon bostirilgandan keyingi chora-tadbirlar. 1892-yil 18-iyundan "Harbiy holatda deb e'lon qilingan joylar haqida qoida"ning kuchga kirishi.

Andijon qo'zg'olonning boshlanish sabablari. Qo'zg'olonchilarning xatolari.

Qo'zg'olonning bostirilishi.

Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta'siri.

Birinchi jahon urushining Turkistonga ta'siri. 1914-yil Turkistonda "Favqulotda muhofaza holati". Rossiya imperatorining "Front orqasidagi xizmatlar uchun Turkiston, Sibir va Kavkazdan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar

30

safarbarligi"ni e'lon qilishi. Turkistonda 1916-yilgi qo'zg'olonlarning boshlanishi sabablari. Qo'zg'olonning Turkiston bo'ylab tarqalishi. Jizzax qo'zg'oloni.

Turkistonda 1916-yilgi qo'zg'olonning boshlanishi.

Turkistonda 1916-yilgi voqealarning oqibatlari va ahamiyati.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Buxoro amirligi.

Chor Rossiyasi bosqinidan keyin Buxoro amirligi davlat boshqaruvi va ma'muriy-hududiy bo'linishidagi o'zgarishlar. Buxoro amirligida "Rossiya imperatorining siyosiy agentligi"ning o'rnatilishi. Soliq va majburiyatlar.

Baljuvonda, Ko'lob bekligida, Kalifda dehqonlar qo'zg'oloni. Kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi. Hunarmandchilik. Savdo-sotiq munosabatlari.

Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Eron bilan savdo-sotiq. Madaniyat va ta'lim tizimi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligi.

Xiva xonligida Rossiya imperiyasi protektorati o'rnatilganidan so'ng davlat boshqaruvi va ma'muriy-hududiy bo'linishidagi o'zgarishlar. Yer egaligi. Soliq va majburiyatlar. Sanoatning rivojlanishi. Dastlabki paxta tozalash zavodlari.

Xonlikning Rossiya imperiyasi bilan savdo aloqalari. Hunarmandchilik va ichki savdo. Kasanachilikning rivojlanishi.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlar turmush tarzi.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlar madaniyati.

Ilm-fan namoyandalari. Maktab va madrasalar faoliyati. Xalq og'zaki ijodi. "Qirq qiz" dostoni.

Turkistonda jadidchilik harakati.

Turkistonda jadidchilik oqimi paydo bo'lishining shart-sharoitlari. Jadidchilik harakatining Turkistonga yoyilishi. Jadidlarning g'oyalari va mafkurasi. Jadid maktablarining ochilishi.

Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati.

Turkiston jadidlar harakatining milliy xususiyatlari. Turkiston jadidlari chor yakka hukmronligiga qarshi turishi. Jadidlar yoshlarni chet elda o'qitish tarafdorlari.

Jadidlar faoliyatining Turkiston aholisi hayotiga ta'siri. Rossiyadagi siyosiy jarayonlar ta'sirida jadidlar harakatining faollashuvi.

Turkistonda ilm-fan va madaniyat.

1886-yilgi "Nizom"da "Turkiston o'lkasining yer tuzilishi". Nizomga asosan o'lkada yirik yer egaligining tugatilishi. Qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar. Paxta xom-ashyosiga bo'lgan ehtiyoj. Rus kapitalining O'rta Osiyoga kirib kelishining mahalliy hunarmandchilik va kasanachilikka ta'siri. Yollanma ishchilarning ahvoli.

Ichki savdo. Rossiyaning O'rta Osiyoda ko'chirish siyosati. O'rta Osiyoda temir yo'llar qurilishining iqtisodiy va harbiy ahamiyati.

Turkistonda mahalliy ilm-fan va adabiyotning rivojlanishi. Rus olimlarining Turkiston o'lkasidagi faoliyati. Ta'lim muassasalari. Matbuot va jurnalistika.

Me'morchilik. Tasviriy san'at. Turkistonda teatr.

Turkiston o'lkasi 1917-yil fevral-oktyabr oraliq'ida.

Rossiyadagi Fevral inqilobi va uning Turkiston o'lkasiga ta'siri. Rossiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komiteti faoliyati. Butunturkiston musulmonlari qurultoylari hamda "Sho'roi Islomiya" va "Sho'roi Ulamo" tashkilotlari, jadidlar bilan ulamolar o'rtasidagi ixtiloflar.

Rossiyadagi oktabr to'ntarishining Turkiston o'lkasiga ta'siri. Toshkentda sovet hokimiyatining o'rnatilishi hamda Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Sovetining tashkil qilinishi. Bolsheviklar va so'l eserlarning Turkiston jadidlariga qarshi kurashi.

Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi.

Buxoro amirligidagi ahvol va Yosh buxoroliklar faoliyati. Kolesovning Buxoroga bosqini va uning oqibatlarini. Qizil armiyaning Buxoroga hujumi hamda amir hokimiyatining ag'darilishi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tuzilishi.

BXSRdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar.

Xiva xonligining tugatilishi.

Xiva xonligidagi siyosiy vaziyat va Yosh xivaliklar faoliyati. Xonlikda vaziyatning keskinlashib borishi. Qizil armiya tomonidan Xiva xonligining tugatilishi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil qilinishi hamda undagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar.

Turkiston Muxtoriyati.

Jadidlarning muxtoriyat uchun kurashi hamda Turkiston Muxtoriyati hukumatining tashkil topishi va faoliyati. Turkiston xalqlari tomonidan muxtoriyat hukumatining qo'llab-quvvatlanishi. Bolsheviklarning Turkiston Muxtoriyatiga qarshi kurashi. Dashnoqlar va qizil gvardiyachilar tomonidan muxtoriyat hukumatining tor-mor qilinishi. Qo'qondagi ommaviy qirg'inlar. Turkiston Muxtoriyatining tarixiy ahamiyati.

Turkiston o'lkasida sovet hokimiyati boshqaruv tizimining o'rnatilishi.

Bolsheviklarning o'lkada yuritgan siyosati hamda Turkiston ASSR va Turkiston Kompartiyasining tashkil topishi. Markaz vakolatli organlarining Turkistondagi faoliyati hamda ularga qarshi milliy kommunistlar va Musulmonlar byurosining kurashi. Turkistondagi ocharchilik va uning oqibatlar. "Harbiy kommunizm"dan yangi iqtisodiy siyosatga o'tish. O'rta Osiyoda yer-suv islohotining boshlanishi.

Xususiy mulkka bo'lgan munosabatning o'zgarishi, ijtimoiy mulkchilikning qaror topishi.

Turkiston ASSR, BXSr va XXSRda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning boshlanishi va sabablari.

Harakatning mohiyati, maqsadi va ijtimoiy tarkibi. Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatida sovet hokimiyatiga qarshi kurashlar.

BXSr hududida qizil armiyaga qarshi kurash va xalq qo'zg'olonlarining boshlanishi. Xorazmda Junaidxon boshchiligidagi harakat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning mag'lubiyatga uchrash sabablari va kurash saboqlari.

O'rta Osiyoda hududiy chegaralanish.

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazishga tayyorgarlik jarayoni,

mahalliy kommunistlar va Markaz vakillari o'rtasida turli qarashlar to'qnashuvi. 1924-yili O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish va uning yakunlari.

O'zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komiteti (Markaziy revkom) faoliyati.

O'zbekiston SSRning tashkil topishi.

O'zbekiston SSRning tuzilishi, uning hududi va aholisi. O'zbekiston SSRning SSSR tarkibiga kirishi. O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSRning tashkil

topishi. Qoraqalpoq avtonom viloyatining tuzilishi va Qoraqalpog'iston ASSRning O'zbekiston SSR tarkibiga kiritilishi.

Sovet hokimiyati amalga oshirgan islohotlarning mohiyati.

Industriallashtirish siyosati va uning natijalari.

O'zbekistonda sovet hokimiyati amalga oshirgan modernizatsiyaning taqlidchilik modeli va uning mohiyati. Mamlakatni industriallashtirish siyosatiga o'tish va besh yillik rejalarining ishlab chiqilishi. O'zbekistonda zamonaviy sanoat sohaslarining paydo bo'lishi va yangi korxonalari qurilishi. Jadal industriallashtirish siyosati va uning oqibatlari. Mahalliy kadrlarni tayyorlashdagi murakkabliklar va Markazdan yevropalik aholining ko'chirib keltirilishi. Mahalliyashtirish yoki o'zbeklashtirish siyosati va uning natijalari.

O'zbekiston qishloq xo'jaligining ahvoli va uni isloh qilish yo'llari. Yersuv islohoti va uning bosqichlari. Qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish sari yo'l tutilishi.

Kollektivlashtirishning majburiy sur'atda amalga oshirilishi hamda kolxoz va sovxozlarning tashkil qilinishi. O'zbekistonda quloqlashtirish siyosati hamda uning oqibatlari. O'zbek qishlog'i fojiasi.

O'zbekistonda sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosat.

Sovet hokimiyatining ta'lim va fan sohasidagi islohotlari. Xalq maorifi va savodsizlikka qarshi kurash. Alifboning o'zgartirilishi. Oliy ta'lim va zamonaviy fanning shakllanishi, mahalliy kadrlar tayyorlash sohasidagi o'zgarishlar. Yangi turdagi o'zbek adabiyoti va milliy san'atining taraqqiyoti. Xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish va ijtimoiy mehnatga jalb qilish muammolari. "Hujum" harakati va uning mohiyati. O'zbek ayollarining yangi jamiyatdagi o'rni va mavqeyi. Fayzullo Xo'jayev va Akmal Ikromov faoliyati.

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi qatag'onlik siyosati: uning mohiyati va oqibatlari.

SSSRda yagona mafkuraning hukmronligiga asoslangan totalitar tuzumning qaror topishi va uning mohiyati. Stalin shaxsiga sig'inish. O'zbekistonda dastlabki qatag'onlarning boshlanishi. Huquq va maorif tizimida qatag'onning avj oldirilishi. 1937–1938-yillardagi "katta terror" hamda O'zbekistonda davlat arboblari, ziyolilar, ulamolar va harbiylarning qatag'on qilinishi. "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi hamda "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi.

O'zbekiston ikkinchi jahon urushi yillarida.

Ikkinchi jahon urushida o'zbekistonliklarning ishtiroki. O'zbekiston moddiy va ma'naviy kuchlarining urushga safarbar etilishi. Frontga yaqin hududlardan sanoat korxonalari va aholining O'zbekistonga evakuatsiya qilinishi va urush yillarida ularning faoliyati. Urush yillari O'zbekiston sanoat tizimida yuz bergan o'zgarishlar. Qishloq xo'jaligidagi ahvol. Aholi turmushi va qiyinchiliklar. O'zbekiston iqtisodiyotini urush sharoitida ishlash uchun qayta qurish. O'zbekistonga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarini ishga tushirish. Yangi elektr stansiyalari va boshqa energiya manbalarini qurish. Front uchun mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish. O'zbekistonliklarning

Sibir va Ural mudofaa zavodlariga ishga jalb qilinishi. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi, yangi ekin turlarining o'zlashtirilishi. Aholining ko'rsatgan mehnat jasoratlari.

O'zbekistonliklarning frontdagi jasorati va qahramonliklari.

O'zbek diviziyalarining tashkil qilinishi. Antigritler koalitsiyaning tuzilishi.

O'zbekistonlik jangchilarning frontda ko'rsatgan jasoratlari. Germaniyaning tor-mor qilinishi. Militaristik Yaponiyaga qarshi kurashda o'zbekistonliklar ishtiroki. Ikkinchi jahon urushi tarixiga munosabat muammolari. Toshkentda "G'alaba bog'i"ning bunyod etilishi.

O'zbekiston fani va madaniyati – g'alaba uchun xizmatda.

O'zbekiston fani, adabiyoti va san'ati namoyandalari fashizmga qarshi kurashda.

O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining tashkil topishi va faoliyati. O'zbek san'ati vakillarining frontdagi jangchilarga xizmat ko'rsatishi. Shoir va yozuvchilarning jasoratga chorlovchi asarlari. O'zbekistonning Rossiya, Belorussiya va Ukraina intel- lektual elitesini saqlab qolishdagi roli. O'zbek xalqining bag'rikenglik va bay- nalmilallik xislatlari. Usmon Yusupovning urush yillaridagi faoliyati.

O'zbekiston xalq xo'jaligining urushdan keyingi yillardagi rivojlanishi.

Respublikada paxta monokulturasining kuchayishi. Ijtimoiy sohadagi qiyinchiliklar, xalqning turmush tarzi.

1980-1990-yillarda O'zbekiston.

Mamlakat siyosiy hayotidagi o'zgarishlar. O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar va O'zbekiston Kompartiyasining siyosati. Xalqning moddiy ahvolidagi ijobiy siljishlar.

Respublika qishloq xo'jaligining rivojlanishi, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirishning boshlanishi.

Paxta yakkahokimligi va ijtimoiy muammolarning kuchayib borishi. "Paxta ishi" va uning respublikadagi ijtimoiy holatga ta'siri. Sh. Rashidov faoliyati. SSSR va O'zbekiston SSR siyosiy-qtisodiy rivojlanishdagi muammolar. Sanoat ishlab chiqarishining zamondan ortda qolishi. "Qayta qurish" siyosatining inqirozi.

O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy faollik va mustaqillik sari intilishning kuchayishi.

O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy inqirozning keskinlashuvi. Turli millatlar o'rtasida etnik mojarolarning kelib chiqishi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi. O'zbekiston bilan Markaz o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi.

O'zbekiston SSRda prezidentlik institutining tashkil etilishi. Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi.

Takrorlash. Yakuniy nazorat ishi.

10-SINF
JAHON TARIXI
(34 soat)

Kirish.

**I bob. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA JAHON MAMLAKATLARI:
INDUSTRIAL SIVILIZATSIYANING QAROR TOPISHI**

(9 soat)

Industrial sivilizatsiyaning qaror topishi.

XIX asrning 70-yilarida Yevropa va Shimoliy Amerikada texnik taraqqiyot va industrial sivilizatsiyaning yangi bosqichi. Iqtisodiyotda yangi tendensiyalarning

paydo bo'lishi. Imperializm, millat, milliy davlat va mustamlakachilik muammolari.

Kishilarning moddiy va madaniy olamida yuz bergan o'zgarishlar.

“Yanada Buyuk Britaniya” uchun: yangi iqtisodiy va mafkuraviy tizimning paydo bo'lishi.

“Pax Britanica” davrining yakunlanishi. Iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari. Ishchilar harakati. Parlamant islohotlari. Mustamlakachilik urushlari. Angliya xalqaro nufuzining pasayishi. R. Kipling va “Yanada Buyuk Britaniya” g'oyasi.

Fransiya va Germaniya: Yevropada yetakchilik uchun kurash.

Fransiya-Prussiya urushi. Parij kommunasi. Fransiyada Uchinchi respublikaning o'rnatilishi. “Ajoyib davr”ning yakunlanishi, XX asr boshlarida Fransiyada kapitalizm rivojlanishi.

Germaniya imperiyasi: “Quyosh ostidan joy” uchun kurash. Jadal iqtisodiy rivojlanish. Imperator Vilgelm II va “Yangi kurs”dan “jahon siyosati” sari.

Sharqiy Yevropa va Rossiya: jamiyatni isloh qilish muammolari.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida siyosiy tizim va iqtisodiy rivojlanish muammolari. Germaniya va Rossiya ta'siri: rivojlanishning ikki xil modeli. Rossiyada amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari. Demokratik va inqilobiy harakatlar. Tashqi siyosat. Rossiya madaniyati.

Ikki xil Amerika: Shimoliy va Janubiy Amerikada taraqqiyot yo'nalishlari.

AQSHning iqtisodiy rivojlanishi, dunyoning yetakchi sanoat mamlakatiga aylanishi. “Progress erasi” yillarida Amerika. AQSHning tashqi siyosati.

Madaniyat, Amerika sivilizatsiyasining shakllanishi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari. Meksika inqilobi. Lotin Amerikasi xalqlari madaniyati.

Yaponiya, Xitoy va Hindiston: islohotlarning osiyocha yo'li.

Yaponiyada Meydzining burjuacha islohotlari. Kapitalizmning rivojlanishi. Siyosiy partiyalar va 1889-yilgi konstitutsiya. Tashqi siyosat. Yaponiya madaniyati.

Xitoyda “o'z o'zini kuchaytirish” siyosati. Sinxay inqilobi. Tashqi siyosat. Xitoy madaniyati.

Hindistonda milliy yangilanish mafkurasining shakllanishi. Hindiston milliy kongressi va Musulmon ligasi faoliyati. XX asr boshlarida Hindiston. Madaniyat.

Islom sivilizatsiyasi mamlakatlarida an'anaviylik va islohotchilik o'rtasidagi kurash.

Islom sivilizatsiyasining holati. Turkiyada ma'rifatchilik va konstitutsiya uchun harakat. "Yangi usmoniylar". "Yosh turklar" inqilobi.

Eronning yarim mustamlakaga aylantirilishi. 1905–1911-yillardagi konstitutsion inqilob.

Islom sivilizatsiyasi mamlakatlarida iqtisodiy va madaniy rivojlanish.

Afrika mamlakatlarida mustamlakachilik va taraqqiyot muammolari.

Qullik, qul savdosi va uning oqibatlari. Berlin konferensiyasi va Afrika xalqlarining unga munosabati. Iqtisodiy zulm va mustamlakachilikka qarshi kurash.

Milliy ozodlik mafkurasining shakllanishi.

Nazorat ishi.

II bob. JAHON URUHLARI ORALIG'IDA SIVILIZATSIYA RIVOJINING IKKI YO'NALISHI: LIBERAL DEMOKRATIYA VA TOTALITAR-AVTORITAR DIKTATURA (7 soat)

Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari.

XX asr boshlarida jahon taraqqiyotidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi.

Birinchi jahon urushining boshlanishi, xarakteri va ishtirokchi davlatlarning maqsadlari. Urushning bosqichlari, oqibatlari va muhim ko'rsatkichlari.

Liberal-demokratik mamlakatlarida taraqqiyotning yangi muammolari.

Liberal-demokratiya evolyutsiyasi. Libreal-demokratiya davlatlari.

F. Ruzveltning "Yangi siyosat"i va uning natijalari. Buyuk Britaniyada leyboristlar hukumati va rivojlanish muammolari. Fransiyada hukumat almashinuvlari. Xalq fronti va fashzimga munosabat.

Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari: yangi urush o'chog'ining paydo bo'lishi.

Totalitarizm – XX asr fenomeni. Bolshevizm va sovet totalitar tizimining o'ziga xos jihatlari. Italyan va nemis fashizmi, fashistlarning hokimiyatga kelishi.

Yaponiya militarizmi. Totalitar davlatlarda iqtisod, siyosat va mafkura. Yangi urush sari qadamlar.

Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari.

Birinchi jahon urushidan keyin Osiyo mamlakatlaridagi siyosiy holat.

Usmoniyaylar imperiyasida urushdagi mag'lubiyat oqibatlari. M. K. Otaturk:

Turkiya respublikasining tashkil topishi va islohotlar. Dunyoviy davlat va islom dini muammosi.

Xitoyda ichki siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, fuqarolar urushi.

Mamlakatni birlashtirishning yakunlanishi. Yaponiya agressiyasi. "Hindistonni boshqarish to'g'risida" qonun. M. Gandi siyosiy faoliyati.

Hindiston Milliy kongressi. 1935-yilgi konstitutsiya.

Afrikada milliy uygʻonish va mustaqillik gʻoyalarining paydo boʻlishi.

36

Birinchi jahon urushidan keyin Afrikada mustamlakachilik. Mandat tizimi. Milliy-ozodlik harakatlari. Janubiy Afrika ittifoqi va irqchilik rejimining qaror topishi. Afrika Milliy Kongressi.

Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari.

Ikkinchi jahon urushidan oldin xalqaro munosabatlar. Germaniya-Italiya-Yaponiya tajovuzkor blokining tashkil topishi. Myunxen kelishuvi. Urushning boshlanishi, Yevropadagi harbiy harakatlar. Germaniyaning SSSRga bostirib kirishi.

SSSR va Gʻarb davlatlari oʻrtasidagi munosabatlar. Germaniya va Yaponiyaning tor- mor qilinishi. Urushning natijalari.

Nazorat ishi.

III bob. 1945–1991-YILLARDA YEVROPA VA SHIMOLIY AMERIKA MAMLAKATLARI (10 soat)

Gʻarbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yoʻnalishlari.

Demokratik islohotlar. Yevro-Atlantik sivilizatsiya: “Umumiy farovonlik jamiyati”. 1960-yillarda radikalizmga qarshi reformizm. 1970-yillarda taraqqiyot modelining inqirozi. 1980-yillardagi neokonservativ inqilob. Soʻl mafkura inqirozi.

Ilmiy-texnik inqilob. Integratsiya jarayonlari. Industrial sivilizatsiyadan postindustrial sivilizatsiya sari.

SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yoʻnalishlari.

Urushdan keyingi tiklanish va rivojlanish. “Sovuq urush” va ikki qutbli tizimning shakllanishi. SSSRning Sharqiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan siyosati.

Integratsiyalashuv: iqtisodiy va harbiy bloklarning tuzilishi. Kommunistik jamiyat gʻoyasi, totalitar sotsializm va uning inqirozi.

AQSH: yangi liderning paydo boʻlishi.

Urushdan keyingi Amerika jamiyati. D. Eyzenxauer va J. Kennedi: respublikachilar va demokratlar. Fuqarolar huquqlari uchun harakatlar, yangilanayotgan jamiyat. R. Niksondan R. Reygangacha: rivojlanish suratlari, AQSHning tashqi siyosati.

Buyuk Britaniya va Fransiya: yangi Yevropani qurish.

Buyuk Britaniyada leyboristlar boshqaruvi. 1950-yillarda barqaror iqtisodiy rivojlanish. 1960–1970-yillarda “yanada yaxshiroq kelajak” kurash. M. Tetcher davri

“tetcherizm”.

Fransiyada muvaqqat rejim. Toʻrtinchi respublika davri. Yevropa integratsiyasi sari. Sh. de Gol: Beshinchi respublika. 1970–1980-yillarda sotsialistlar boshqaruvi.

Germaniya va Italiya: mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot.

37

Germaniyada urushdan keyingi tiklanish. Partiyaviy-siyosiy tizimning shakllanishi. GFRning tashkil topishi. "Germaniya iqtisodiy mo'jizasi". 1980-yillardagi rivojlanish.

Italiya: urushdan keyingi tiklanish. De Gasperi hukumati, "Italiya iqtisodiy mo'jizasi". 1970–1980-yillarda Italiya.

G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari.

G'arbiy Yevropada integratsiya jarayonining bosqichlari: Ta'riflar va savdo bo'yicha bosh kelishuvdan – Yevropa iqtisodiy ittifoqigacha. Yevropa ittifoqining tashkil topishi: yutuqlar, muammolar va istiqbollar.

Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari: diktatura va demokratiya.

Janubiy Yevropa mamlakatlarida siyosiy rivojlanish muammolari: Ispaniyada – Franko, Portugaliyada – Salazar, Gretsiyada – "qora polkovniklar" rejimlari. Iqtisodiy taraqqiyotning murakkab yo'li.

Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz: imperiyaning tugatilishi.

Urushdan keyingi tiklanish va totalitar rejimning kuchayishi. "Iliqlik" davri va uning asosiy natijalari. Global inqiroz sari qadamlar: SSSR 1965-1985-yillarda.

Ma'naviy hayot. "Qayta qurish" va uning inqirozi. SSSRning parchalanishi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari: totalitarizm va demokratiya oralig'ida.

Urushdan keyin Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining sotsializmga jalb qilinishi. Integratsion jarayonlar. Vengriya, Chexoslovakiya va Polshada sotsialistik tizimga qarshi harakatlar. 1970–1980-yillari iqtisodiy va siyosiy rivojlanishdagi ziddiyatlar. Jahon sotsialistik tizimining qulashi.

Rivojlanishdagi yangi yo'nalishlar.

Nazorat ishi.

IV bob. UYG'ONAYOTGAN DUNYO: 1945–1991-YILLARDA OSIYO, AFRIKA VA LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI (8 soat)

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.

Ozodlik va taraqqiyot muammolari: mojaro va inqirozlar.

Modernizatsiyaning murakkab yo'li. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellari, sotsialistik g'oyalar. Islom mamlakatlarida modernizatsiyaning o'ziga xos yo'llari.

Avtoritar rejimlar: modernizatsiya tajribasi.

Yaponiya Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi.

Yaponiyaning bozor iqtisodiyotiga o'tishi. 1950–1960-yillardagi rivojlanish: yapon "iqtisodiy mo'jizasi". Postindustrial iqtisodiy modelning shakllanishi.

38

Xitoyda fuqarolar urushi. Siyosiy tizimning shakllanishi. “Katta sakrash” va “Madaniy inqilob”. Den Syaopin va yangi islohotlarning boshlanishi. Koreyaning bo‘linishi. Koreya Respublikasi: iqtisodiy rivojlanish bosqichlari va siyosiy hokimiyat muammolari.

Hindiston va Pokistonda mustaqillikning murakkab yo‘li.

Hindiston mustaqilligining e‘lon qilinishi va mamlakatning ikkiga bo‘linib ketishi. “J. Neru davri”: zamonaviy siyosiy tizimning shakllanishi. “I. Gandi davri”da Hindistonning rivojlanishi.

Pokiston davlatining tashkil topishi, Bangladeshning ajralib chiqishi.

Siyosiy rejimning shakllanishi va harbiy to‘natarishlar. Iqtisodiy rivojlanish muammolari.

Turkiya, Eron va Afg‘oniston: diniy qadriyatlar va zamonaviy sivilizatsiya muammolari.

Turkiyaning urushdan keyingi rivojlanishi. Siyosiy rivojlanish muammolari: harbiy to‘natarishlar. 1980-yillardagi iqtisodiy islohotlar.

Eronda shoh hokimiyatining kuchayishi. Neft sanoatini natsionalizatsiya qilish uchu kurash. “Oq inqilob” islohotlari. Shoh hokimiyatining ag‘darilishi, Eron Islom Respublikasining rivojlanish muammolari.

Afg‘onistonda siyosiy rivojlanish muammolari. M. Zohirshohning ag‘darilishi, M. Dovud prezidentligi davri. 1978-yilgi “Savr inqilobi” va uning oqibatlari.

Suriya, Iroq va Janubi-g‘arbiy Osiyo mamlakatlari.

Suriyada mustaqillikning e‘lon qilinishi. Misr bilan ittifoqqa birlashish.

Suriya arab Respublikasining tashkil qilinishi. Siyosiy va iqtisodiy rivojlanish muammolari.

Iroqda siyosiy rivojlanish muammolari. 1958-yilgi davlat to‘natarishi.

Siyosiy mojarolar, S. Husaynning hokimiyatga kelishi. Neft sanoatining rivojlanishi.

Tashqi siyosat.

Janubi-g‘arbiy Osiyo mamlakatlarida siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi muammolari. 1960–1970-yillardagi jadal rivojlanish.

Lotin Amerikasida milliy islohotchilik va taraqqiyotning boshqa yo‘llari.

Urushdan keyingi yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojiga AQSHning ta’siri. Natsional-refomizm va diktatorlik rejimlari. 1970–1980-yillarda demokratik rejimlarning taklanishi. Modernizatsiyaning islohotchilik, neokonservativ va inqilobiy yo‘llari.

Afrikada mustaqillik, qashshoqlik va taraqqiyot muammolari.

Shimoliy Afrikadagi arab mamlakatlarida modernizatsiya va an’anaviylik muammolari. Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlarida mustaqillik uchun kurash: “Afrika yili”. Afrika davlatlarida modernizatsiya muammolari. Aparteid rejimiga qarshi kurash.

XX asrning ikkinchi yarmida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi.

39

Ilmiy-texnik inqilob va uning natijalari. Tabiiy fanlardagi kashfiyotlar va iqtisodiy nazariyalar. Qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar. Ommaviy madaniyat

muammolari. San'at, milliy madaniyatlar va adabiyotning rivojlanishi. Nazorat ishi.

11-SINF **O'ZBEKISTON TARIXI (34 SOAT)**

KIRISH

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi, yangi jamiyatga o'tish davrida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, ma'naviy-ruhiy poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi. O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishi. XX asrning so'nggi yillari va XXI asrning boshi O'zbekiston tarixi. Tarixiy davr sifatida tub burilish hodisasi.

Mustaqillik davrini quyidagi ikki bosqichga bo'lib o'rganish:

1) 1991–2016-yillar. Bu davrda milliy davlatchilik asoslari va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirishga qaratilgan o'tish davrining dastlabki islohotlar jarayoniga ilk qadamlar qo'yilganligi. Demokratik an'analar asosida yangi davlat boshqaruv tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tashkil etilishi, hamda fuqarolik jamiyati asoslari yaratilishi, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tilishi.

2) 2017-yildan keyingi yillar. Eng yangi tarix tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekistonning eng yangi tarixining mazmuni, farqli belgilari va asosiy yondoshuvlari. Tarixiy bilim tizimida eng yangi tarixning o'rni.

1-bob. Mustaqillikning e'lon qilinishi va O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning boshlanishi (4 soat)

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi. Mustaqillik Deklarasiyasining qabul qilinishi. O'zbekiston SSR Oliy Kengashining II sessiyasi. Mustaqillik uchun harakatlarning faollashishi. Sovet Ittifoqida davlat to'ntarishi sodir etilishi. Favqulodda holat davlat komiteti. O'zbekiston SSR Prezidenti mamlakatimizning to'la mustaqilligi yo'lida tamal toshini qo'yganligi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi "O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida"gi qonun loyihasini tayyorlash. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinishi. Davlat ramzlarning qabul qilinishi. Davlat bayrog'i, Gerbi va Madhiyasi.

O'zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi. Prezidentlik institutining shakllanishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida saylov. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. O'zbekiston davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki

palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata). Vazirlar Mahkamasi tuzilishi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, uning strukturasi va funksiyalari. Sud hokimiyati. Sudlar alohida hokimiyat sifatida. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari. O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv muassasalari to‘g‘risida»gi qaror.

2-bob. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi (4 soat)

Fuqarolik jamiyati g‘oyasining rivojlanish tarixi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari. “O‘zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi Qonun. Mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organi – vakillik va ijro organlari. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari. Mahalliy davlat hokimiyat organlari. Fuqarolar yig‘ini. Saylov tizimi. “O‘zbekiston Respublikasining referendumini to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonuni. Markaziy saylov komissiyasi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining yuzaga kelishi. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi. “Adolat” sotsial-demokratik. O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi. O‘zbekiston Liberal-Demokratik partiyasi. O‘zbekiston ekologik harakati.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy bosqichlari va istiqbollari. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotida demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlari. Davlat siyosatining bosh yo‘li huquqiy, demokratik davlatni vujudga keltirish, qonun oldida barchaning tengligini ta‘minlash, “fuqaro – jamiyat – davlat” prinsipini joriy etish. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsyepsiyasi. Sud-huquq tizimi. Advokatura instituti. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi. Xalq bilan muloqotning yo‘lga qo‘yilishi. 2017 yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” deb e‘lon qilinishi. 2017–2021 yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

3- bob. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy siyosat (4 soat)

O‘zbek modelining ishlab chiqilishi. Iqtisodiy islohotlarning boshlanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li, taraqqiyotning “O‘zbek modeli”. O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘liga doir Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil: Iqtisodning siyosatdan ustunligi, uni mafkuradan xoli etish. Davlat bosh islohotchi va iqtisodiy o‘zgarishlarning tashabbuskori. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning tengligi. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, izchil ravishda o‘tish kabilar asos qilib olindi. Iqtisodiy islohotlarni boshqarish tizimining barpo etilishi. Bozor infratuzilmasining

shakllanishi. Milliy valyutaning qabul qilinishi. Zamonaviy transport-kommunikasiya tizimining shakllanishi. O'zbekiston temir yo'llari. Milliy avtomobilsozlik sanoatiga asos solinishi. Agrar islohotlar.

Mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining oshirilishi va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish. Tadbirkorlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, ularni rag'batlantiradigan mexanizmning yaratilishi. Sug'urta faoliyati to'g'risida. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bir necha bosqichlarda olib borilishi. Birinchi bosqich – 1991–1996 yillar. Ikkinchi bosqich – 1996–2000 yillar. Uchinchi bosqich – 2000–2016 yillar. To'rtinchi bosqich – 2016 yildan boshlandi. Erkin va maxsus iqtisodiy zonalar yaratilishi hamda ularning ahamiyati. Soliq tizimi. Qishloq xo'jaligidagi islohotlar.

Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirish bosqichlari. Mustaqillik arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyat. Ijtimoiy siyosat konsyepsiyasining shakllanishi. Keksalarni himoya qilish. Onalar va bolalar salomatligi muhofazasi. Uy-joylar qurilishi.

4-bob. O'zbekistonda etnik va konfessiyalararo munosabatlar (2 soat)

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. Millatlararo totuvlik g'oyasi. O'zbekistondagi 138 ta milliy-madaniy markazlar. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar. O'zbekiston hududida o'z madaniyati va o'z an'analariga ega bo'lgan 130 dan ortiq millat va ellat vakillari. Milliy-madaniy markazlar. Baynalmilal markaz. O'zbekiston – bag'rikeng diyor. O'zbekistonda umumxalq bayramlari. Millatlararo munosabatlarda yangi davr.

O'zbekistonda konfessiyalararo munosabatlar. Dinlararo bag'rikenglikning shakllanishi. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti. Toshkent – Islom madaniyati poytaxti. O'zbekistonda islomdan tashqari xristianlik, yahudiylik, buddaviylik va boshqa konfessiyalarga e'tiqod qiluvchi kishilar. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonuni. Diniy bag'rikenglik tamoyillari. Turli din vakillariga munosabat. Islom dini va diniy ta'limga e'tibor.

5-bob. Ta'lim tizimi islohotlari va kadrlar tayyorlash (3 soat)

Umumiy va o'rta maxsus ta'lim tizimi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim tizimi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Yangi alifbo. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. I bosqich – 1997–2001 yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratilishi. II bosqich – 2001–2005-yillarni o'z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. III bosqich –

2005-yildan bugungi kungacha. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi natijasida erishilgan natijalar, to'plangan tajribalar umumlashtirilib, shu asosda yurtimizda ta'lim tizimi takomillashtirilishi. Majburiy ta'lim. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimining tashkil etilishi. 2017-yilgi islohotlar.

Oliy ta'lim va undan keyingi ta'limning takomillashtirilishi. Oliy ta'lim tizimi. Viloyatlardagi pedagogika institutlari negizida universitetlar ochilishi. Talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar. Davlat test markazi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq 5 yillik oliy ta'limdan 4 yillik bakalavriat va 2 yillik magistratura bosqichlaridan iborat ikki pog'onali tizimga o'tilishi.

6-bob. Mustaqillik yillarida ilm-fan va sportning rivojlanishi (3 soat)

O'zbekistonda ilm-fan. Mustaqillikning dastlabki yillarida ilm-fan. Oliy attestatsiya komissiyasi. Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi. Innovasion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasi. Fanlar akademiyasi. Ilm-fan va ta'lim integratsiyasi. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestasiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmon. Ilm-fandagi tub islohotlar. Innovasion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida» qaror. Fanlar akademiyasi haqiqiy a'ziligiga saylovlar.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi. Jismoniy tarbiya va sportni qo'llab-quvvatlovchi tizimning yaratilishi. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" Qonun. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida 2017–2018 o'quv yilidan boshlab ta'limning sirtqi bo'limi tashkil etilishi. Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi. Uch bosqichli sport o'yinlari. Tennis bo'yicha Iroda To'laganovaning, boks bo'yicha Ruslan Chagayev, Artur Grigoryan va Muhammadqodir Abdullayevlarning dunyo sport arenalaridagi yutuqlari. Kurash. Olimpiada. Futbol.

O'zbekistonda yoshlar siyosati. Yoshlar tashkiloti. O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg'armasi. "O'zbekiston Yoshlar ittifoqi". Yoshlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qilishi. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror. "Zulfiya nomidagi davlat mukofoti. «Nihol» mukofoti. O'qishga kirishda test sinovlarida to'planadigan eng ko'p ballning 25 foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyoz berish. Yoshlarga e'tiborning kuchayishi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Barcha harbiy akademik lisyeylarga "Temurbeklar maktabi" nomi berilishi. "Mard o'g'lon" mukofoti. Al-Xorazmiy maktabi.

7-bob. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ma'naviy va madaniy taraqqiyot (2 soat)

O'zbekistonda ma'naviy va tarixiy merosning tiklanishi. Tarixiy xotiraning tiklanishi. Yangi tarixiy sharoitda jamiyatga munosib kishilarni tarbiyalash. Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi. Alisher Navoiy nomida Davlat mukofoti ta'sis etilishi. Ulug'bek yili. Amir Temur tavalludining 660-yilligi. "Temur tuzuklari" bir necha tilda chop etilishi. Ogahiy tavalludining 190-yilligi. Ajiniyoz Qosiboy o'g'li tavalludining 175-yilligi. Ahmad al-Farg'oni tavalludining 1200-yilligi. Inson xotirasi boqiy. Sharof Rashidov tavalludining 100-yilligi. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning tiklanishi. Istiqlool sharofati bilan xalqimizning milliy-ma'naviy merosini tiklash. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizning milliy va ma'naviy merosi xalqimizga qaytarilishi. Ro'za hayitini dam olish kuni deb e'lon qilinishi.

O'zbekistonda madaniyat va san'at. Ma'naviyat maskanlari. Teatr. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri. "Turkiston" saroyi. Simpoziumlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmon. Madaniyat vazirligi. O'zbek milliy akademik drama teatrining 100-yilligi. Musiqa va raqs san'ati. "O'zbeknavo" gastrol-konsert birlashmasi. "O'zbekiston – Vatanim manim" mavzuida ko'rik-tanlov o'tkazish. "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining ochilishi. Tasviriy san'at. xalq ustasi» faxriy unvoni ta'sis etildi, "Hunarmand" uyushmasi. Kino. "O'zbekkino" milliy agentligi. Badiiy adabiyot. Muzey. Qatag'on qurbonlari xotirasi, Surxondaryo viloyatining markazi–Termiz shahridagi Arxeologiya muzeyi.

8-bob. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va ikki tomonlama munosabatlari (4 soat)

O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyatining shakllanish va uning ustivor yo'nalishlari. O'zbekistonning geosiyosiy holati. O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos geografik tuzilishi. Markaziy Osiyo mintaqasi. Ichki va tashqi siyosat. Qulay geosiyosiy imkoniyatlar. Buyuk Ipak yo'li. Qo'shni davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston. O'zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati asoslarining ishlab chiqilishi. Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi. Tashqi siyosat tamoyillari.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro hamkorligi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik. O'zbekiston – Qozog'iston. O'zbekiston – Qirg'iziston. O'zbekiston-Tojikiston. O'zbekiston – Turkmaniston.

O'zbekiston Respublikasining Rossiya, Xitoy va AQSH bilan o'zaro munosabatlari. O'zbekiston–Rossiya. O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan o'zaro hamkorlik masalalari. O'zbekiston–Xitoy. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida an'anaviy do'stlik munosabatlari o'rnatilishi. O'zbekiston–AQSH. O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida davlatlararo aloqalar.

O'zbekistonning Yaponiya, Hindiston va Koreya Respublikasi bilan ikkitomonlama aloqalarining rivojlanishi. O'zbekiston–Yaponiya. O'zbekiston o'zining sharqiy yo'nalishdagi tashqi siyosatida Osiyo qit'asining Yaponiya, Hindiston va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlar va manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlashi. O'zbekiston – Hindiston. Hindiston O'zbekistonning yirik strategik hamkori. O'zbekiston – Koreya Respublikasi. O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasida hamkorlik munosabatlarining rivoji. Koreys tili va madaniyati markazlari.

9-bob. O'zbekiston Respublikasining ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarining rivojlanishi (4 soat)

O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi faoliyati va tinchlikparvar tashqi siyosati. O'zbekiston va BMT. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda BMTga qabul qilinishi va mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'lishi. O'zbekiston davlatining birinchi rahbari I.Karimov tomonidan BMT minbarida ilgari surilgan takliflar. BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ilk bor ma'ruza qilishi. Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb e'lon qilish, Orol muammosi bo'yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish. O'zbekiston BMTning bir qator ixtisoslashtirilgan muassasalari, jumladan Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon savdo tashkiloti (JST), BMTning Yevropa bo'yicha iqtisodiy komissiyasi (YEIK), BMT savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi guruhi kabilar bilan keng ko'lamli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston va YUNESKO. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish masalasi. Ekologik muammolar. Transchegaraviy daryolar.

O'zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar doirasida ko'p tomonlama hamkorligi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga asos solinishi. MDHning Nizomi qabul qilinishi. O'zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan aloqalari. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – submintaqaviy xalqaro tashkilot. SHHTga a'zo davlatlar. Toshkent, Ostona sammitlari.

11-SINF JAHON TARIXI O'QUV DASTURI

KIRISH

Jahon tarixining 1991-yildan boshlangan davrida dunyoning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda jamiyat hayotining barcha jabhalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan omil ilmiy-texnik inqilobning yangi bosqichi – kompyuter-axborot inqilobi bo'ldi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichini tahlil qilish va mustaqil hayotga qadam qo'yish arafasida turgan davlatlarni va hozirgi dunyodagi siyosiy voqealarni o'rganish. Jahon xalqlari madaniyatining har biri o'ziga xos noyob ekanligini, gumanizm va vatanparvarlik tamoyillari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat g'oyalariga asoslangan umuminsoniy qadriyatlarni anglashga ko'maklashadi. Jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlarini bilib olish, rivojlanishning o'ziga xos yo'llarini tushunish va istiqbollari haqida tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

I BOB. XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA DUNYO MAMLAKATLARI (3 soat)

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar. 1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshlarida xalqaro munosabatlarda yuz bergan tub o'zgarishlar. "Sovuq urush" va "ikki qutbli dunyo" modelining barham topishi. Xalqaro terrorizm muammosi. AQSH – Rossiya munosabatlari. Xalqaro munosabatlarda Xitoy va Hindiston davlatlari rolining oshib borishi. Afg'oniston, Iroq, Suriya, Ukraina muammolari.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik lagerning parchalanishi. SSSRdagi qayta qurish siyosatining sotsialistik mamlakatlarga ta'siri. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik tizimning parchalanishi. Polsha, Chexoslovakiyadagi inqilobiy jarayonlar. Yugoslaviya muammosi. Sharqiy Yevropa mamlakatlari XX asr oxiri – XXI asr boshlarida. Postsotsialistik taraqqiyot muammolari. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining integrasiyalashuvi.

Sovet davlatining parchalanishi va sobiq sovet respublikalarida mustaqillikning e'lon qilinishi. SSSRda qayta qurish siyosati va uning inqirozi. Demokratik kuchlarning faollashuvi. Novo-Ogaryovo yig'ilishi va barqarorlashish jarayonining boshlanishi. 1991-yil avgust inqirozi (GKCHP). SSSRning tarqalishi. Sobiq sovet respublikalarida mustaqillikning e'lon qilinishi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ning tuzilishi.

II BOB 1991 – 2017-YILLARDA DUNYO MAMLAKATLARI (24 soat)

1991–2017 yillarda Rossiya Federasiyasi. Rossiya Federasiyasida iqtisodiy islohotlarning og‘ir yo‘li. Boris Yelsin faoliyati. Jamiyatning siyosiy hayotida yuz bergan muhim o‘zgarishlar. 1993-yil oktyabr inqirozi. Millatlararo munosabatlar. Checheniston urushi. Vladimir Putinning hokimiyatga kelishi, Rossiyada barqarorlashuv jarayonining boshlanishi. Rossiya XXI asrda. Tashqi siyosat.

1991–2017 yillarda Ukraina, Belarussiya va Moldova respublikalari. 1980-yillar oxiri – 1990-yillarda Ukrainada ijtimoiy-siyosiy hayotning faollashuvi va milliy-ozodlik harakatining kuchayishi. 1991-yil 1-dekabrdagi referendum va Ukraina mustaqilligining e‘lon qilinishi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari. Ukrainada davlat qurilishi va siyosiy jarayonlar. BSSRda mustaqillikning e‘lon qilinishi. Belarus Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Moldova Respublikasi mustaqilligining e‘lon qilinishi. Ruminiya bilan integratsiyalashish jarayonining boshlanishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish muammolari.

1991 – 2017-yillarda Boltiqbo‘yi davlatlari. Latviya, Litva va Estoniyaning mustaqillikka erishishi. Yevropada integratsiyalashuv jarayoni. Boltiq bo‘yi davlatlarining NATO (Shimoliy Atlantika bloki) va Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish. Rossiya bilan munosabatlardagi muammolar.

1991 – 2017 yillarda Kavkazorti davlatlari. Ozarbayjon, Gruziya va Armanistonda davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi. Ozarbayjondagi siyosiy jarayonlar va G.Aliyevning hokimiyatga kelishi. Ozarbayjonning iqtisodiy rivojlanishi. Tog‘li Qorabog‘ muammosi. Gruziyadagi siyosiy jarayonlar. E.Shevardnadzening hokimiyatga kelishi. M.Saakashvili islohotlari va uning Gruziya taraqqiyotidagi ahamiyati. Armanistondagi siyosiy jarayonlar. Diasporadagi vatandoshlar bilan munosabat. Tog‘li Qorabog‘ muammosi. Iqtisodiy o‘sish muammolari.

1991 – 2017-yillarda Markaziy Osiyo davlatlari. Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg‘iziston davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi. Qozog‘istondagi siyosiy va iqtisodiy islohotlar. Rossiya va Xitoy bilan munosabatlar. Turkmanistonda S.Niyozovning olib borgan siyosati. Mamlakatning demokratik rivojlanish muammolari. G.Berdimuhamedov va iqtisodiy rivojlanish muammolari. Tojikistondagi siyosiy jarayonlar. Mamlakatdagi fuqarolar urushi va uning oqibatlari. I.Rahmonovning hokimiyatga kelishi va barqaror rivojlanishning boshlanishi. Qirg‘iziston Respublikasidagi siyosiy va inqilobiy jarayonlar. 2005 yilgi “Lolalar inqilobi”, 2010 yilgi “Atirgullar inqilobi”. A.Atambayev faoliyati Qirg‘izistonda barqarorlikning vujudga kelishi.

G‘arb mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi. Yevropa Ittifoqi va AQSH munosabatlari. Rivojlanish va hayot darajasining bir-biriga yaqinlashuvi. Qoloq mintaqalarni rivojlantirish umumevropa dasturlari. Yevroatlantika mamlakatlarida yagona iqtisodiy siyosat modelining shakllanib borishi. Yevropa Ittifoqining kengayishi.

Maastricht kelishuvlari va “ichki chegaralarsiz makon”ning vujudga kelishi. Iqtisodiy muammolar. Qochoqlar muammosi va multikulturalizm siyosatining inqirozi. Breksit va Yevropa Ittifoqi kelajagi muammolari. Yevropa Ittifoqi va AQSH munosabatlari.

1991–2017-yillarda Amerika Qo’shma Shtatlari. R.Reygan va AQSHda neokonservatizm tantanasi davri. J.Bush va “yangi xalqaro tartibni” o’rnatish tashabbusi. “Reyganomika” siyosatidan voz kechish va B.Klintonning yangi “iqtisodiy falsafasi”, “yevroatlantik bozorni” yaratish rejasi. Kichik J.Bush davridagi moliyaviy inqiroz. B.Obama va D.Tramp davridagi etnik va siyosiy muammolar. AQSHning tashqi siyosati.

1991 – 2017 yillarda Germaniya Federativ Respublikasi. GFR va GDRning birlashishi. 1990 yillarda Germaniya. Iqtisodiy va ijtimoiy muammolar. 1990 yillar oxiridagi iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar. Germaniya XXI asrda. A.Merkelning hokimiyatga kelishi. “Merkel davri”. Qochoqlar muammosi. Ukraina muammosi va Rossiya bilan munosabatlar.

1991 – 2017 yillarda Buyuk Britaniya. Buyuk Britaniya XX asr oxirida. J.Meyjorning siyosiy kursi. 1990 yillar birinchi yarmidagi repressiya davri. E.Blerning konstitusion islohotlari. Buyuk Britaniya XXI asr boshlarida. 2008 – 2009 yillardagi moliyaviy inqiroz. D.Kameron Buyuk Britaniyada multikulturalizm siyosatining barbod bo’lishi. Breksit va Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlar.

1991 – 2017 yillarda Fransiya. XX asr oxirlarida Fransiya. F.Mitteran siyosati. Shengen kelishuvi. J.Shirakning Yevropa Ittifoqida yetakchilik uchun kurash siyosati. Iqtisodiy rivojlanish. Fransiyada postindustrial axborot jamiyatining shakllanishi. XXI asr boshlarida Fransiya. N.Sarkazi va F.Oland davrida Fransiyaning rivojlanishi. Terrorizm muammosi. F.Makronning siyosiy kursi.

1991 – 2017 yillarda Italiya. Italiyada siyosiy beqarorlik korrupsiya muammolari. “Halol qo’llar” kompaniyasi. Siyosiy beqarorlik va hukumat almashinuvlari. Italiya XXI asr boshlarida. Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o’tishning boshlanishi. Iqtisodiy muammolar.

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo’nalishlari. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida rivojlanish muammolari. Modernizatsiyalashning murakkab yo’li. Janubiy Osiyo mamlakatlarining o’ziga xosligi. Islom dunyosi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida islom fundamentalizmi. Lotin Amerikasi: avtoritarizm va demokratiya orasida. Avtoritar rejimlar: modernizasiya tajribasi.

1991 – 2017 yillarda Xitoy Xalq Respublikasi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Xitoydagi islohotlar jarayoni. “Davlat sektorini modernizasiya qilish dasturi”. “Xitoy iqtisodiy mo’jizasi”. Xitoy Xalq Respublikasining xalqaro jamiyatda tutgan o’rni. Janubi-Sharqiy Osiyo va Tinch okeani havzasida yetakchilik uchun kurash. Tashqi siyosat. AQSH va Rossiya bilan munosabatlar.

1991 – 2017 yillarda Yaponiya. XX asr oxirlarida Yaponiyada postindustrial iqtisodiy modelning shakllanishi. XXI asr boshlarida Yaponiya. Fukusima-1 atom elektrostansiyasidagi halokat va iqtisodiy rivojlanish muammolari. Yaponiyada postindustrial sivilizatsiya muammolari. Tashqi siyosat. Yaponiya – Xitoy va Yaponiya – AQSH munosabatlari.

1991 – 2017 yillarda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Hindixitoy mamlakatlarining tinch taraqqiyot yo'li. V'yetnamda siyosiy va iqtisodiy islohotlar. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Sharqiy Osiyo mamlakatlari. Suxarto va Indoneziyaning keyingi rivojlanishi. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi “yangi industrial davlatlar”.

1991 – 2017 yillarda Hindiston Respublikasi. 1990-yillarda Hindiston. Narasimxa Rao hukumatining islohotlari. 1990 yillardagi iqtisodiy rivojlanish yutuqlari. A.B.Vajpai hukumati amalga oshirgan tadbirlar. Hindiston–Pokiston munosabatlari. Iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining jadallashuvi. N.D.Modining islohotlar siyosati. Tashqi siyosat. Hindistonning BRIKSga a'zo bo'lishi.

1991 – 2017 yillarda Turkiya Respublikasi. 1990 yillarda Turkiyadagi siyosiy jarayonlar. T.O'zol va S.Demirelning islohotchilik siyosati. Mamlakatda islomchilarning faollashuvi. N.Yerbakan. XXI asrda Turkiyaning siyosiy rivojlanishi muammolari. R.Erdog'anning hokimiyatga kelishi va harbiylar bilan munosabat. Turkiyaning tashqi siyosati. AQSH, Yevropa Ittifoqi va Rossiya bilan munosabatlar.

1991 – 2017 yillarda Eron Islom Respublikasi. 1990 yillari eronda siyosiy va iqtisodiy hayotning barqarorlashuvi. Eronning jahon sport va madaniyat maydoniga qaytishi. Eronning xalqaro terroristik tashkilotlarga munosabati. Eronning zamonaviy muammolari: ishsizlik va inflyatsiya. Prezident Hasan Ruhoniy siyosati va eronning jahon hamjamiyatiga qaytishi muammolari.

1991 – 2017 yillarda Pokiston va Afg'oniston. 1990-yillari Pokistonda hokimiyat almashinuvi, korrupsiya va qarindosh-urug'chilikda muammolari. 1999-yilgi harbiy to'ntarish. P.Musharraf, N.Sharif siyosati. Pokistonning tashqi siyosati. Afg'onistonda mujohidlarning hokimiyatga kelishi. Afg'oniston Islom Respublikasining e'lon qilinishi. Ben Laden va “Al-Qoida” tashkilotining faollashuvi. Mujohidlar hukumatining o'rta asrchilik siyosati. AQSHning Afg'onistondagi harbiy harakatlari. Mujohidlarning ag'darilishi. Afg'onistonning tinch rivojlanish muammolari.

1991 – 2017-yillarda Suriya va Iroq. 1990-yillari Suriyada H.Asadning ichki va tashqi siyosati. Iroq – Quvayt urushi davrida Suriyaning tutgan pozitsiyasi. H.Asadning hokimiyatga kelishi. “Arab bahori”ning Suriyaga ta'siri. “Juma inqilobi”. Urush harakatlarining boshlanishi. Terrorizm muammosi. AQSH va Rossiyaning Suriyadagi harakatlari. Iroqning Quvaytga bostirib kirishi. Quvaytni ozod qilish bo'yicha “Sahrodagi bo'ron” operatsiyasi. Iroqning AQSH tomonidan bombardimon qilinishi. S.Husaynning ag'darilishi. Terrorizm muammosi.

1991– 2017 yillarda Isroil davlati va Falastin muammosi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Isroil. Yaqin Sharq bo'yicha 1991 yilgi Madrid xalqaro konferensiya. Falastin avtonomiyasini tuzish to'g'risida kelishuvga erishish. FATX bilan Isroil o'rtasida muvaqqat kelishuv imzolanishi. 2000 yili falastinliklar qo'zg'olonining boshlanishi. M.Abbos siyosati. Falastin davlatining xalqaro miqyosda tan olinishi. Isroil–Falastin muammosining hozirgi holati.

1991 – 2017 yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Lotin amerikasi mamlakatlari. 1990 yillar boshlarida Argentinada rivojlanish yo'nalishini keskin o'zgartirishga urinish. D.Kavalo islohotlari va ularning oqibatlari. K.Kirshner islohotlari. Braziliyada F.Kardozu islohotlari. L. da Silva siyosati. D.Rusef prezidentligi, Braziliyadagi siyosiy mojarolar va iqtisodiy qiyinchiliklar. Meksikada modernizasiyalashning islohotchilik varianti davom ettirilishi. Chili – modernizasiyaning neokonservativ varianti. Lotin Amerikasi mamlakatlari XXI asrda.

1991 – 2017 yillarda Afrika mamlakatlari. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Misr. G'arbiy Misrda "Yangi vodi" loyihasi. Liviyada M.Kaddafiy rejimi va uning ag'darilishi. Islomchilarning faollashuvi. Afrika davlatlarining mustaqil rivojlanish muammolari. Afrika davlatlarida chegaraviy va etnik muammolar. Nelson Mandela faoliyati. Janubiy Afrika Respublikasida aparteid tuzumi va uning qulashi. Janubiy Afrika Respublikasidagi islohotlar va ularning natijalari. Tropik va Janubiy Afrika XX asr oxiri – XXI asr boshlarida. XXI asrda Afrika mamlakatlarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy muammolari.

III BOB. YANGI MING YILLIK JAHON SIVILIZASIYASI MUAMMOLARI (3 soat)

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida globallashuv muammolari, harbiy, ekstremistik va ekologik xavf-xatarlar. Umumiy globallashuv va xalqaro hamkorlik muammolari. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi globallashuv muammolari. Harbiy xavf-xatarlar. Ekstremizm va terrorizm muammolari. Tabiiy resurslar muammosi va biosferaning ifloslanishi. O'zbekistondagi ekologik muammolar. Insoniyatning global muammolari.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida barqaror rivojlanish va etno-ijtimoiy muammolar. Barqaror xavfsiz rivojlanish va xalqaro aloqalar. Tabiatni himoya qilish bo'yicha davlatlar tomonidan olib borilayotgan tadbirlar. Atrof muhitni himoya qilish va taraqqiyot bo'yicha Rio-de-Janero konferensiyasi. Etno-ijtimoiy munosabatlar va ularga migratsion jarayonlarning ta'siri. Iqtisodiy tengsizlik muammolari. Irqchilik va irqiy kamsitilishga qarshi kurash. XX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi etno-ijtimoiy muammolar.

XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida ilmiy-texnik taraqqiyot. Ilm-fan, adabiyot va san'at. Ilmiy-texnik inqilob va uning natijalari. XX asr oxiri –

XXI asr boshlarida tabiiy fanlar va tibbiyot. Iqtisodiy nazariyalar va ularning taraqqiyotga ta'siri. Qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar. San'atdagi yangi yo'nalishlar. Milliy madaniyatlar rivojlanishi muammolari. Adabiyot. XXI asrda ommaviy madaniyat muammolari.